

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

BITIRUVCHI KURS TALABASI

NAIMOVA DURDONA SOHIBOVNAning

«ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI»

mavzusidagi

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishida bakalavr  
akadem darajasini olish uchun yozgan*

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

(2017-2018-o‘quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor

O‘RAYEVA D.S

Buxoro – 2018

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani \_\_\_\_\_ A.A.Haydarov

“ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil.

**BITIRUVCHI KURS TALABASI**  
**NAIMOVA DURDONA SOHIBOVNAning**  
**«ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI»**  
**mavzusidagi**

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishida bakalavr  
akadem darajasini olish uchun yozgan*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**(2017-2018-o‘quv yili)**

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor**

**O‘RAYEVA D.S.**

**Rasmiy hakam: filologiya fanlari nomzodi**

**DAVRONOVA SH. G‘.**

**Buxoro – 2018**

«Ma'qullayman» \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: f.f.doktori,  
professor D.S. O'rayeva

« » \_\_\_\_\_ 2017-y.

«Tasdiqlayman» \_\_\_\_\_

O'zbek adabiyoti kafedrası  
mudiri SH.N. Ahmedova

« » \_\_\_\_\_ 2017-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **NAIMOVA DURDONA SOHIBOVNA**ning «ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

### TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
<b>Nazariy faoliyat</b>	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	sentabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	oktabr		
<b>BMI ustida ishlash</b>	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	noyabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	dekabr		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart		

	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish	aprel		
<b>BMIni rasmiy-lashtirish</b>	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	May		
	BMIni himoya qilish	Iyun		

**Bitiruvchi kurs talabasi**

**Naimova Durdona**

**Ilmiy rahbar**

**O'rayeva Darmonoy**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**  
**o'zbek tilshunosligi kafedrasining 1-yig'ilishi bayonnomasidan**

**KO'CHIRMA**

**25-avgust, 2017-y.**

**Qatnashdil: kafedraning barcha**

**a'zolari**

**KUN TARTIBI**

***Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig'i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.***

**Kafedra qaror qiladi:**

4-kurs talabasi Naimova Durdonaning bitiruv malakaviy ishi mavzusi **“ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI”** shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Naimova Durdonaning malakaviy bitiruv ishiga f.f.doktori, professor O‘rayeva Darmonoy ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig‘ilish raisi**

**SH.N.Ahmedova**

**Yig‘ilish kotibasi**

**G.Y.Samandarova**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**  
**o'zbek tilshunosligi kafedrasining navbatdan tashqari yig'ilishi**  
**bayonnomasidan**

**KO'CHIRMA**

**Buxoro sh.**

**10-may, 2018-y.**

**Qatnashdi: kafedraning barcha**

**a'zolari**

**K U N T A R T I B I**

4-kurs talabasi Naimova Durdonaning **“Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifonimlarning badiiy talqini”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

**Kafedra qaror qiladi:**

4-kurs talabasi Naimova Durdonaning **“Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifonimlarning badiiy talqini”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o'tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent SH..Davronova tayinlansin.

**Yig'ilish raisi**

**SH.N.Ahmedova**

**Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Naimova Durdonaning "Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifonimlarning badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

#### **ANNOTATSIYASI**

Folklor ma'naviyatning tarixiy asosi va zamini sifatida bugungi zamonaviy adabiyotni boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbaidir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat etukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma'naviy dunyosi boyligini ta'minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folklorning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar

jonli aloqasi hamda vorisligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langani tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlarini his etishga, amaliy faoliyatda esa, ulug'vor axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun undagi yuksak g'oyalarga ergashish hamisha dolzarb bo'lib kelgan.

Bitiruv malakaviy ishining mazmunidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

mifonimlar mohiyati izohlash va ularning hayotiy hamda folkloriy asoslarini yoritish;

mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalarini aniqlash;

zamonaviy she'riyatda uchraydigan mifologik obrazlarning o'rni va badiiy-semantik tiplarini ko'rsatib berish hamda tasnif qilish;

kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar: Yalmog'iz, Jodugar, Alvasti, Ajina talqinining zamonaviy she'riyatda berilishini o'rganish;

zamonaviy lirikada maxluq qiyofasidagi (dev, shayton, ajdaho) va inson qiyofasidagi mifologik obrazlar (Xizr, pari, jin) talqinini tadqiq qilish;

zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarni ifodalash an'anasi bilan tanishish.

**Ilmiy rahbar**

**O'RAYEVA D.S.**

**Talaba**

**Naimova Durдона.**

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Naimova Durdonaning "Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifonimlarning badiiy talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Zamonaviy she'riyat obrazlari orasida shundaylari borki, ular an'anaviyligi, og'zaki va yozma asarlarda o'ziga xos talqin etilishi, g'oyaviy-tarbiyaviy mohiyati bilan alohida e'tiborni tortadi. Jumladan, mifologiya bilan bog'liq yalmog'iz, ajina, alvasti, dev, pari, shayton, Xizr, Humo va boshqalar shu silsilaga mansub bo'lib, ushbu ishda uarning o'ziga xos badiiy talqin xususiyatlari haqida so'z yuritildi. Bu mifologik obrazlarning o'zbek folklori va hozirgi zamonaviy she'riyatdagi talqini o'zaro qiyoslanib, an'ana va novatorlik jihatdan o'rganildi. Aynan shu jihatdan qaralsa, mazkur bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va ahamiyati ravshanlashadi.

Talaba o'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida mifologik obrazlarining qo'llanilishi haqida o'zigacha bildirilgan fikr-mulohazalarni imkon qadar umumlashtirib, masalaga ijodiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga, ishonchli misollar asosida o'z qarashlarini asoslashga harakat qilgan. Ishda mavzuga aloqador bir qator ilmiy va badiiy manbalar sinchiklab o'rganilgan. Fikr-mulohazalar reja asosida mantiqiy izchillikda bayon etilgan. Bajarilgan ish unda belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni ikki asosiy bobda bayon etilgan. "Kirish" qismida ishning umumiy tavsifi berilgan.

Ishning ilk bobi va uning qo'shaloq fasllarida mifonimlar mohiyati va genezisi, mifonimlarning hayotiy va folkloriy asoslari, mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi bob va uning uch fasli zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarning turlari, jumladan, kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar (yalmog'iz, jodugar, alvasti, ajina), maxluq qiyofasidagi mifologik obrazlar (dev, shayton, ajdaho), inson qiyofasidagi mifologik obrazlar (xizr, pari, jin) talqini muammosini o'rganishga qaratilgan.

Ishning oxirida umumiy xulosalar aniq va lo'nda bayon etilgan. Undan keyin ellikdan ortiq foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Umuman aytganda, ishda qo'yilgan mavzu yoritib berilgan. Uning yozilish uslubi, rasmiylashtirilishi belgilangan talablarga javob beradi. Biroq ishning ba'zi sahifalarida takrorlar, ayrim ishoraviy xatolar uchraydi. Shuningdek, boblar bo'yicha xulosalar berish maqsadga muvofiq bo'lardi. Ammo bu aytilganlar ishning umumiy saviyasiga putur etkazmaydi. Ularni yo'l-yo'lakay tuzatish mumkin.

Ishning bajarilishi bakalavrlilik tadqiqotlari oldiga qo'yiladigan talablarga javob bera oladi. U yakunlangan, ijodiy bajarilgan. Shuni inobatga olib, ishni ommaviy himoyaga tavsiya qilish mumkin hamda uning muallifi D.S.Naimova bakalavr akademik darajasini olishga loyiq, deb hisoblayman.

**Ilmiy rahbar:**

**D.S. O'raeva,**

Buxoro davlat universiteti

O'zbek adabiyoti kafedrasida professori,

filologiya fanlari doktori.

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Naimova Durdonaning "ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rasmiy hakam**

**TAQRIZI**

**Rasmiy hakam**

**Qilichev B.E.**

**o'zbek tilshunosligi kafedrası**

**dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

***Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil iyun***

***bayonnomasi bilan tasdiqlangan***

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Naimova Durdonaning "ZAMONAVIY O'ZBEK

SHE'RIYATIDA MIFONIMLARNING BADIY TALQINI" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

**XULOSASI**

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslanmagan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi; ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo'q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo - 10 ball	yaxshi - 7 ball	qoniqarli - 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq - 8 ball	o'rta - 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMIning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo - 7 ball	yaxshi - 6 ball	qoniqarli - 5 ball
14	BMIning qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

**Eslatma:** Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

**DAK raisi: prof. Shermatov A.**

**A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)**

**2. prof.Ahmedova SH.N. (a'zo)**

**3. dots.Rajabova M.B. (a'zo)**

**4. Davronova SH.G'. (a'zo)**

**5.**

**6.**

**-iyun, 2018-y.**

## **REJA**

**KIRISH.**

**I BOB. MIFONIMLAR MOHIYATI VA GENEZISI**

I.1. Mifonimlarning hayotiy va folkloriy asoslari.

I.2. Mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalari.

**II BOB. ZAMONAVIY SHE'RIYATDA MIFOLOGIK OBRAZLAR  
TURLARI**

II.1. Kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar (Yalmog`iz, Jodugar, Alvasti, Ajina) talqini.

II.2. Maxluq qiyofasidagi mifologik obrazlar (Dev, shayton, ajdaho) talqini

II.3. Inson qiyofasidagi mifologik obrazlar (Xizr, pari, jin) talqini.

**XULOSA.**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Folklor ma'naviyatning tarixiy asosi va zamini sifatida bugungi zamonaviy adabiyotni boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbaidir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat etukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma'naviy dunyosi boyligini ta'minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folklorning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi hamda vorisligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langani tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlarini his etishga, amaliy faoliyatda esa, ulug'vor axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun undagi yuksak g'oyalarga ergashish hamisha dolzarb bo'lib kelgan.

Istiqloq yillarida tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan da'vat xalq donishmandligi xazinasini o'rganishga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Chunki xalqimizning eng qadimiy ma'naviy an'alarini o'zida mujassam etgan bu qadriyatlar boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik turmush tarzini, madaniyatini, e'tiqodiy qarashlarini o'ziga singdirib, mukammal tizim sifatida shakllangan. Shu silsilada mifologik nomlarning ham o'z o'rnini bor. Ular xalqimizning mifologik tasavvur-tushunchalari, turli e'tiqodiy qarashlari, qadimgi turmush tarzi, o'tmish madaniyati haqida o'ziga xos badiiy shaklda ma'lumot bera olishi jihatidan qimmatlidir. Qolaversa, ular haqidagi ilmiy ma'lumotlar hozirgi yosh avlodga ajdodlarimizning boy madaniy tarixini o'rgatishda, ularning tarbiyasiga ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatib, qalbida xalq an'alariga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda qulay vosita bo'lib xizmat qila oladi.

Asrlar davomida yaratilib, avlodan-avlodga o'tkazib kelingan barcha folklor namunalari, folkloriy tushunchalar, jumladan, mifonimlarni o'rganish, ayniqsa, ularning zamonaviy she'riyatda ham folklorga xos an'analar asosida talqin qilinayotganining boisini tadqiq qilish, ijtimoiy-tarixiy ildizlarini tekshirish hozirgi adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, unda zamonaviy o'zbek she'riyatida mifonimlarning qo'llanishi, mif bilan bog'liq obrazlarning analoglari, badiiy-semantik tiplari va o'ziga xos estetik vazifalari, tarixiy-folkloriy ildizlari yaxlit tizim ko'rinishida monografik jihatdan tadqiq qilinmoqda.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** O'zbek tilshunosligida ham mifonimlar masalasi alohida tadqiq qilinmagan. Faqat bu borada onomastika yo'nalishidagi ayrim ishlarda ma'lumotlar uchraydi, xolos. Shuningdek, zamonaviy she'rshunosligimizda ham bu masala haligacha o'z echimini topmagan.

Miflar, mifonimlar bilan aloqador ilmiy qarashlar, etnofolkloristik ma'lumotlar ayrim taniqli folklorshunos va elshunoslarning asarlarida uchraydi. Jumladan, Komil Imomov, Mamatqul Jo'rayev, Darmonoy O'rayeva, Ahmad Ashirov, Jabbor Eshonqulov, Olim Qayumov, Mahbuba Rahmonova, Furqat Nurmonov ishlarida.<sup>1</sup>

Mifonimlar haqida ma'lumot M.Jo'rayevning "Folklorshunoslik asoslari" nomli qo'llanmasida, D.O'rayevaning maqolasida ham uchraydi.<sup>2</sup>

Umuman aytganda, respublikamiz mustaqillikka erishgach, ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri bo'lmish folklori o'rganishga nisbatan ilmiy qiziqish juda

---

<sup>1</sup> Imomov K. Afsona // Ўзбек фольклори очерклари. 3-томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1989, 9-бет; Жўраев М. Хизр // Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. (Ш.Шомусаров билан ҳамкорликда). – Т.: Фан, 2001. – Б.104-118; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 199-205. Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 1996. – Б.8-23; Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи: Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 1999. – Б.25; Раҳмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналарининг ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва таснифи. Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2003. – Б.46-50; Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2007. – Б.7-22.

<sup>2</sup> Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.210-22; Ўраева Д. Ўзбек фольклори ва фольклоршунослигида мифонимлар / Onomastika masalalari. Problems of onomastics. Вопросы ономастики. – Тошкент: Наврўз, 2017. –Б.32-34.

kuchaydi. Shu qiziqish asosida o'z tadqiqotimizda mifonimlarning xalqona talqinlar asosida zamonaviy she'riyatda obrazlantirilishini o'rganishni ko'zda tutdik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Ishda zamonaviy she'riyatda mifonimlarning badiiy talqinini ilmiy tadqiq qilish bosh maqsad qilib belgilandi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

mifonimlar mohiyati izohlash va ularning hayotiy hamda folkloriy asoslarini yoritish;

mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalarini aniqlash;

zamonaviy she'riyatda uchraydigan mifologik obrazlarning o'rni va badiiy-semantik tiplarini ko'rsatib berish hamda tasnif qilish;

kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar: Yalmog'iz, Jodugar, Alvasti, Ajina talqinining zamonaviy she'riyatda berilishini o'rganish;

zamonaviy lirikada maxluq qiyofasidagi (dev, shayton, ajdaho) va inson qiyofasidagi mifologik obrazlar (Xizr, pari, jin) talqinini tadqiq qilish;

zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarni ifodalash an'anasi bilan tanishish;

zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarning badiiy-estetik vazifalari va ramziy ma'nolarini ochish va h.k.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Zamonaviy she'riyatda mifologik obraz va tushunchalarni o'zida ifoda etuvchi mifonimlarning badiiy talqini tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Ishni yozishda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ikrom Otamurod, Muhammad Ali, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Qutlibeka Rahimboyeva, Shavkat Rahmon, Sadridin Salim Buxoriy, Sotim Avaz, Usmon Azim, Usmon Qo'chqor, Sirojiddin Sayyid, Ahad Qayum singari zamonaviy shoirlarning she'riy to'plamlaridan manba sifatida foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining yangiligi:**

1. Qadimiy insonlarning ishonch-e'tiqodlarini o'zida ifoda etgan obrazlarni tadqiq qilish orqali epik tafakkur an'analarning yozma ijod bosqichidagi badiiy

takomili xususiyatlarini o'rganish mumkin. Bu esa ham folklorshunosligimiz, ham adabiyotshunosligimiz uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

2. Mifologik obrazlar o'ziga xos tarixga va tadrijga ega. Ularning kelib chiqishiga asos bo'lgan tarixiy-folkloriy jarayonni maxsus tadqiq qilish o'zbek adabiyotshunosligida badiiy so'z taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni o'rganishga keng yo'l ochadi.

3. Mifologik ishonch-e'tiqod asosida kelib chiqqan an'anaviy ramziy obrazlarning tarkibini, ularning har biriga xos xususiyatlarni maxsus tadqiq qilish o'zbek she'riyatidagi obrazlar olamini yanada yaxlit tasavvur qilish imkonini kengaytiradi.

4. Ishda mifonimlarning ma'no-mazmunini folkloriy bilimlar asosida muqoyasa qilib o'rganish orqali xalqimizning azaliy va an'anaviy e'tiqodiy qarashlari tadrijini bilib olishda yordam beradi.

5. Mifonimlarni o'rganish va o'rgatish vositasida yoshlarning tarixiy-folkloriy bilimi va madaniyatini kengaytirish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining xulosa va umumlashmalari she'riyatimizdagi obrazlar olami haqidagi mavjud nazariy qarashlarni yanada boyitishga xizmat qilishi shubhasiz. Ishning o'ziga xos **asosiy ilmiy yangiligi** bevosita shu jihat bilan belgilanadi. **Ikkinchidan**, ishda mifologik obrazlarning o'ziga xos badiiy tasviri va talqini, ayniqsa, ularni ifodalashda xalq e'tiqodiy qarashlariga asoslanilishi birinchi marta ilmiy jihatdan o'rganildi. **Uchinchidan**, zamonaviy she'riyatda mifonimlarning o'rni va badiiy-semantik tiplari tasniflanib, ularning o'ziga xos estetik vazifalari va ramziy ma'nolari ochib berildi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari.** Ishda **qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy, qiyosiy-analitik** metodlardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Zamonaviy she'riyatda mifonimlarning ramziy-badiiy talqin xususiyatlarini yaxlit tadqiqot holida tadqiq etayotgan ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy tahliliy xulosalari va

umumlashmalari xalq tushunchalari asosida shakllangan obrazlarni qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganishda o'ziga xos nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti fani bo'yicha maxsus kurslar o'tishda va ma'ruzalar o'qishda, shuningdek, o'rta umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimida adabiyot fanidan dars mashg'ulotlari olib borishda, ayniqsa, zamonaviy shoirlar ijodi yuzasidan usuliy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Natijalarning joriy qilinishi va sinovdan o'tishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi Buxoro davlat universitetining O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama etilib, tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya qilingan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

## I BOB. MIFONIMLAR MOHIYATI VA GENEZISI

### I.1. Mifonimlarning hayotiy va folkloriy asoslari

Folklorshunoslik fani tilshunoslik, jumladan, onomastika yo'nalishi bilan ham bog'liq bo'lib, unga tayangan holda qadimgi mifologik tasavvurlar, mifik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar – **mifonim**larni, mifga aloqador so'z asosida kelib chiqqan joy nomlari – **mifotoponim**larni o'rganish mumkin.

Folklorshunos D.O'rayeva ta'kidlaganidek, keyingi yillarda o'zbek folklorshunosligiga onomastika bilan bog'liq ravishda kirib kelgan mifonim, mifotoponim kabi atamalar xalq og'zaki ijodi asarlarining til xususiyatlarini, etnik va mifik tabiatini keng va chuqurroq o'rganish sari yo'l ochgani barobarida maxsus tadqiqot sohasi – “lingvofolkloristika”ning shakllanishiga va taraqqiy etishiga olib keldi.<sup>3</sup>

Onomastikada qadimgi insonlarning ibtidoiy, mifologik tasavvur-tushunchalari, e'tiqodiy qarashlari asosida paydo bo'lgan mifik obrazlarning nomlarini umumlashtirib o'rganish uchun “**mifonim**” termini qabul qilingan.

O'zbek folklorshunosligida Semurg`, Hubbi, Zahhok, Xizr, Gavmard, Ayamajuz, G`ul, Humo, Anqo qush, Qaqnus (Samandar) kabi qator mifonimlar borki, ularning har biri kelib chiqishi jihatidan o'zida qadimgi insonlarning ibtidoiy

---

<sup>3</sup> Ўраева Д. Ўзбек фольклори ва фольклоршунослигида мифонимлар / Onomastika masalalari. Problems of onomastics. Вопросы ономастики. – Тошкент: Наврўз, 2017. –Б.32-34.

tasavvur-tushunchalarini, mifologik va e'tiqodiy qarashlarini saqlab kelayotgani bilan e'tiborni tortadi.

Mifga ishonchning hayotiy asoslari shundaki, inson – tabiatning bir bo'lagi. U o'zini tabiatdan ayro tushunmagan davrlarda miflar paydo bo'lgan.

Mifologik obrazlar ikkiga bo'linadi:

- a) demonologik obrazlar: ajdar, dev, pari, ajina, alvasti, jin va h.k.;
- b) homiy kultlar obrazi: Xizr, Hubbi kabi.

Ma'lumki, o'zbek folklori namunalarida uchraydigan dev, ajdar, simurg`, pari, jin, alvasti, ajina kabi obrazlar, odatda, afsonaviy obrazlar sifatida e'tirof qilinadi. Qizig'i shundaki, bu mifologik personajlar afsonalarda xuddi insonlar kabi harakatda ko'rsatiladi.

Miflar eng qadimgi folklor namunalaridir. Ular qadimgi davr folklorida alohida o'rin tutadi va bizgacha ayrim tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalar orqaligi etib kelgan. Miflarning bizgacha etib kelishida zardushtiylik (otashparastlik) dinining muqaddas kitobi «Avesto» muhim rol o'ynaganligini alohida e'tirof etish lozim.<sup>4</sup>

Miflarda, asosan, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar va hayvonlar haqida to'qima hikoya qilinadi.

Miflar folklorning *og'zaki nasr turiga* kiritiladi. Mif “asotir” ham deb yuritiladi. Mif – grekcha “mythos – so'z, rivoyat” so'zidan olingan bo'lib, qadimgi odamning borliq, olam jumboqlari, tabiat va koinot sirlarini bilishga intilishi, bu boradagi ilk tasavvurlari va xulosalari, xudolar, pahlavonlar haqidagi qarashlari asosida paydo bo'lgan.<sup>5</sup>

Mif – ongsiz badiiy to'qima mahsuli. Unda fantastika, xayoliy uydirma etakchilik qiladi. Ibtidoiy inson mifdagi voqelikni inkor etib bo'lmas haqiqat sifatida qabul qilgan. Mifning tabiati haqida M.I.Stebelin – Kamenskiy: “Mif – bu voqelik bo'lib, u qanchalik haqiqatga zid bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyda ayni haqiqat deb qabul qilindi”, – deb yozgan edi.

---

<sup>4</sup> Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqachi, 2008. – B.306.

<sup>5</sup> O'sha joy.

*Miflarni o'rganuvchi fan sohasi mifologiya* deb yuritiladi. Mifologiya fani ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi sifatida vujudga kelgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida, aniqrog'i, inson ongining o'sishi, dunyoqarashining kengayishi, ma'naviyatining boyishi natijasida miflarga ishonch ham yo'qola bordi. Lekin miflar yo'qolib ketmadi. Qaytaga ular ijtimoiy ongning yangi shakllarini vujudga keltirish uchun asosiy manba vazifasini o'tadi. Hozirgi fan, din, san'at va adabiyotning poydevori mifologiya asosida qurilgandir. Qadimgi mifologik syujetlar, obrazlar, tushuncha va tasavvurlar, umuman, mif qoldiqlari ijtimoiy ongning turli shakllariga ko'chib, ulardan muhim o'rin egalladi. Ayniqsa, yaratilish tarzi, voqelikka munosabati hamda voqelikni ifodalash xarakteri jihatidan badiiy asar ko'rinishida namoyon bo'luvchi miflar folklorda o'xshashligi va yaqinligi bilan alohida diqqatni tortadi. Shu bois ular folklor tarkibidan mustahkam o'rin egallagan.

Miflar, asosan, etiologik vazifa (izohlash vazifasini) bajaradi. Mif qadimgi odamning ishonch-e'tiqodlari, o'y-kechinmalari, diniy-axloqiy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so'z vositasida ifoda etilgan ko'rinishlaridan biridir.

Dunyo folklorshunosligidagi naturmifologik yoki naturalistik nazariya tarafdorlari mifni tabiat hodisalari haqidagi qadimgi tasavvurlar majmui deb tushunadilar. Ularning fikricha, qadimgi odamning tabiat haqidagi ibtidoiy e'tiqodiy ishonchlari dastlabki mifologik tasavvurlar tizimining asosini tashkil etadi. Antropologik nazariya tarafdorlari E.Teylor, G.Spenser, E.Long va boshqalarning fikricha, miflar animistik ishonchlar zaminida shakllangan. J.Frezer esa mifologik tasavvurlarning asosini animistik tasavvurlar emas, magiya tashkil etadi, deb hisoblaydi. S.G.Xuk, D.Xarrison, G.Merri kabi olimlarning fikricha, qadimgi miflar ibtidoiy rituallar, ya'ni marosimlarning so'z vositasida ifodalangan shaklidir. L.Levi-Bryul mifning qadimgi diniy e'tiqodlar bilan mushtarakligini aniqlagan.

Simvolistik nazariya oqimi tarafdorlari (jumladan, o'zbek folklorshunoslari ham) mif qadimgi odamlarning olam haqidagi ibtidoiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan ramziy kodlardan tashkil topganligini e'tirof etadilar.

Z.Freyd, E.Fromm, K.G.Yung kabi olimlar miflarning paydo bo'lishini ibtidoiy odamning tabiatga bo'lgan ongsiz hissiy munosabatlari bilan bog'lab o'rganganlar. Ularning tahlil metodlari asosida o'rganish usullarini o'zbek folklorshunosligiga J.Eshonqul tush va mifni qiyosiy tadqiq etish orqali olib kirdi.

M.Jo'rayevning ta'kidlashicha, qadimgi mifologik tasavvurlar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining turli janrlariga diffuziyalana boshlagan.

B.Sarimsoqov o'zbek mifologiyasi taraqqiyotini uch bosqichga – arxaik, mumtoz va o'rta asrlarga xos miflarga bo'linadi, deb hisoblaydi. Uning ko'rsatishicha, arxaik miflarda xaos bilan kosmos o'rtasidagi kurash keng miqyosda aks etadi va ko'proq animistik, totemistik tasavvurlar bu kurashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, ularda yana hech qanday diniy qarashlar unsuri uchramaydi. Mumtoz miflarda esa xaos bilan kosmos kurashining miqyosi biroz toraygan bo'ladi. Politeistik diniy qarashlar (ko'p xudolilik tasavvuri) ustunlik qiladi. Zardushtiylik davri mifologiyasi bunga misol bo'ladi. O'rta asrlar miflarining semantik asosini monoteistik diniy qarashlar tashkil etadi.

M.Jo'rayev o'zbek mifologiyasining taraqqiyoti qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik, dualistik, magik ishonchlari; ibtidoiy odamlar turmushida ritual-ramziy ahamiyat kasb etgan marosimlar; O'rta Osiyoda yashagan qadimgi qavmlar dunyoqarashida alohida o'rin tutgan otashparastlik aqidalari; qadimgi dehqonchilik madaniyati an'analari bilan bog'liq hosildorlik kultlari; islom dini ta'limoti va u orqali O'rta Osiyoga kirib kelgan Sharq, xususan, arab folklori an'analari; mo'g'ul, buryat, chin va hind, eron, yunon mifologiyasining ijodiy ta'siri bilan bevosita bog'liqdir, deb hisoblaydi.

Qadimgi turkiy miflarni olamning yaratilishi va tuzilishi, samoviy halokat yoki olamning intihosi, tangri va ilohiy kuchlar, hoqonlarning tug'ilishi va afsonaviy hukmdorlar to'g'risidagi, turkiy qabilalarning kelib chiqishi, ilk ajdodlar haqidagi miflar turkumi tashkil etadi.

Mumtoz miflar tarkibiga ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan dualistik miflar, kult miflari (suv, olov, osmon jismlari, o'simliklar, jonivorlar, hosildorlik kultlari bilan aloqador

tasavvurlar asosida shakllangan), o'lib-qayta tiriluvchi qahramonlar (Siyovush bilan bog`liq) haqidagi miflar; samoviy (oy, quyosh, yulduzlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalar haqidagi) miflar; taqvimiy miflar, ya'ni yilboshi Navro'z bilan bog`liq udumlar, vaqt hisobi omillari haqidagi asotiriy ishonchlar; antropogenik miflar yoki odamzotning yaratilishi (Kayumars, Gavomard, Jamshid) to'g`risidagi miflar kiradi.

Xullas, miflarning turi ko'p bo'lsa-da, ularning syujeti oddiy va ravon bo'ladi. Ularda ibtidoiy tasavvur-tushunchalar hukmronlik qiladi. Mifologik obrazlar talqinida, mazmunida ijtimoiy ziddiyat sezilmaydi. Biroq ularda qadimiy hayot tajribalari saqlangandir.

## **I.2. Mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalari**

Olis o'tmishda ajdodlarimizning dastlabki tajribalari va tasavvurlari ularga nisbatan hozirgi munosabatlarning shakllanishida o'ziga xos asos vazifasini o'tagan. Mif ham odamzotning borliqqa ilk munosabatini o'zida namoyon etadi.

Mifologik obrazlar badiiy ijodda o'z va ko'chma, ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llanishi bejiz emas. Odamning paydo bo'lishiga aloqador tasavvurlar ham qisman mifga bog`lanadi. Bu haqdagi mif va afsonalarda aytilishicha, inson tanasi to'rt unsurdan tarkib topgan: tuproq, suv, olov (nur), havo. Shuning uchun inson bularsiz yashay olmasligi aytiladi. Shoir Shavkat Rahmon bir she'rida bunga ishora qilib shunday yozadi:

Kim edim-u,  
kim bo'ldim endi,  
ko'rib turar **quyosh, suv, tuproq.**  
Ko'zlarimdan ko'ra hayotni  
elkalarim ko'ribdi ko'proq...

Yoki:

Adib istagi-la to'xtaymiz. Birdan  
Er, quyosh, suv, havo bizni quchadi.  
Daryo qo'shig`idan, el shiviridan  
Tandan yo'l hordig`i tunday ko'chadi.<sup>6</sup>

Qadimgi insonlar suvni inson ruhini poklovchi va unga mangu hayot bag`ishlovchi magik vosita deb qarab, turli marosimlar bilan bog`liq udumlarni ado etib kelishgan. Ular er osti dunyosida o`lgan kishilarga abadiy hayot baxsh etadigan afsonaviy manba bor deb tasavvur qilganlar va bu «suv» deb o`ylaganlar.

Mangu tiriklik suvi va uni er osti yoki suv osti saltanatidan izlab topish haqidagi mifologik motivlar o`zbek xalq afsonalari syujetida alohida o`rin tutadi.<sup>7</sup> Afsonashunos M.Rahmonovanning fikricha, qahramonning obi hayot suvini axtarib er osti yoki suv osti dunyosiga safar qilishi haqidagi afsonalar, obi hayotning o`liklar olamida mavjud bo`lishi haqidagi mifologik tasavvurlar IV-III asrlarda Yunon-Baqtriya madaniyatining shakllanishi jarayonida O`rta Osiyo xalqlari folkloriga kirib kelgan.<sup>8</sup>

Suvga e'tiqodning mifologik asoslari shunda ko`rinadiki, insonlar, umuman, tirik mavjudot suvga bo`lgan hayotiy ehtiyoji tufayli, uni muqaddaslashtirishgan va ilohiylashtirishgan. Odamlar suvning hech qachon tugamasligini, abadiyligini xohlab, “obi hayot”, “mangu hayot suvi” haqidagi mifologik talqinlarni yaratganlar. “Mangu hayot suvi” timsolida suvning va tabiatning, inson hayotining boqiyiligini orzu qilganlar. Ana shu sabab xalq og`zaki ijodiga xos asotir, afsona va ertaklarda suv mangu hayot vositasi sifatida talqin etiladi. Hatto suv dunyosi o`ziga xos sirli olam sifatida tasvirlanadi.

**Obihayot** haqidagi afsonaviy qarashlar bevosita mangu barhayot payg`ambar – Xizr nomi bilan bog`lab talqin etiladi. Hatto bunga ishora zamonaviy shoirlar ijodida ham uchraydi:

Sharqqa hijrat erur vojib,

<sup>6</sup> Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарк, 2012. – Б.192.

<sup>7</sup> Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-жилд. – Т.,1990. – Б.94-95.

<sup>8</sup> Раҳмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналарининг ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва таснифи: Филол. фанлари номзоди...дисс. – Т., 2003. – Б.46-50.

Unda ishq mayu mutrib  
Hamda **Xizr suvi** bordir,  
Boqiy umr senga yordir.<sup>9</sup>

Qadimgi insonlar suvning belgilarini, harakatlarini bevosita kuzatib, uni jonli kuch sifatida timsollashtirishga harakat qilganlar. Ana shu asosda haligacha badiiy ijodda suvni jonlantirish kuzatiladi:

Qo'shiq aytib daryo shovullar  
Ta'zim ila go'zal bahorga.<sup>10</sup>

Yoki:

Ko'lmak der: "Sokindir dengiz ham!"  
Shabnam der: "Bevafo kunduz ham!"<sup>11</sup>

Yana:

Tovoning o'padi **ariqdagi suv**,  
Ko'ylaging etagin o'padi maysa<sup>12</sup>

Ushbu she'riy misralarda "qo'shiq aytayotgan daryo" va "gapirayotgan ko'lmak va shabnam", "yor tovonini o'payotgan suv" timsollarida suvning jonlantirilayotganini, uning odamlarga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin.

Ariqda tip-tiniq, mildir-mildir oqqan suv  
Shevasi dilimga xush.<sup>13</sup>

Shavkat Rahmonning "Suvlar ila muloqot" she'ri mavjud. Shoir unda dil hasratlarini suvdan o'zga tinglaydigan hamfikir topolmaganidan zorlanadi.

Qadimda suvni jonlantirish asosida suv ma'budlari, suv parilari, suv devlari haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalar shakllangan. "Suv dunyosi", "suv olami", "suv osti mamlakati", unga eltuvchi "suv yo'li" haqidagi epik talqinlar vujudga kelgan.

Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko'ra yaratilgan asotir va afsonalar, ertaklarda tasvirlanishicha, insonlar dunyosi kabi suv dunyosi ham mavjud. Uning o'z

<sup>9</sup> Садриддин Салим Бухорий. И.В.Гётенинг "Ғарбу Шарқ девони"дан. Ҳижрат. – Б.87.

<sup>10</sup> Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.34. (136).

<sup>11</sup> Садриддин Салим Бухорий. – Б.76.

<sup>12</sup> О`sha kitob, 136-bet.

<sup>13</sup> Зулфия. Лавҳа / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.159.

hukmdorlari va qonun-qoidalari bor. Ana shunday tasavvur-tushunchalar asosida suv va insonlar dunyosini o'zaro o'xshatish, tenglashtirishdan iborat metaforik ko'chimlar paydo bo'la borgan. Bunday obrazlantirish esa hozirgacha saqlanib kelayotganligi alohida e'tiborni tortadi.

Turli mifologik tushunchalar asosida insonlar o'rtasida suvga magik (sehrli) kuch sifatida qarab, unga munosabatda magik xarakterdagi ramziy harakatlarga e'tibor qaratish an'anasi yuzaga kela boshlagan.

Usmon Qo'chqorning bir she'rida yaproqlarni o'g'irlyotgan **bulbuligo'yo** obrazi uchraydi:

Bu qora tun, yo'q, qushcha emas,  
Senga qora tun tuzoq qo'yg'on.  
Bu ertaklar yolg'on erur, bas,  
Uyg'on, uyg'on, ey bolam, uyg'on.

**Jannat** haqidagi diniy-mifologik afsonalar ham ko'p. Quyidagi misralarda ushbu motivga ishorani kuzatish mumkin:

Saxovat momosi – tog`ning ko'ksidan  
Ko'pirib, hayqirib suti to'kilmish,  
Zarrasi sochilgan muzlar ustida  
Shoshqaloq g`unchalar choki so'kilmish,  
Demak, bahor keldi.<sup>14</sup>

Qadim zamonlardan buyon suv, yomg'ir katta boylikka qiyoslangan. Hayot manbai hisoblangan suvni ilohiy mo''jiza, deb qarashgan. Ayniqsa, yomg'irni "obi rahmat" deya ulug'lashgan.

Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,  
Zinhor shakkoklikka yo'ymang tilagim.  
Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,  
**Obi rahmatl**arda sovusin tanim...<sup>15</sup>

<sup>14</sup> Зулфия. Демак, баҳор келди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.157.

<sup>15</sup> Зулфия. Хотирам синиқлари. Достон. / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.218.

Qadimgi insonlar suvni, avvalo, o'zga olamga borish yo'li, deb qarashgan. Bunday qarashlarning badiiy talqini ko'proq folbklor asarlarida uchraydi. Ammo ayrim zamonaviy badiiy asarlarda ham folklorga xos shu talqinning saqlangani kuzatiladi. Jumladan, shoir Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostonida Yigit bir qizaloqni soydagi toshqindan qutqarib, o'zi cho'kib vafot etadi. Demak, uning tiriklar dunyosidan o'liklar dunyosiga o'tishiga suv sabab (vosita) bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, u dunyoda Yigit hayotda qabih, ig'vogar kimsalarga qarshi kurasholmagani, ular tufayli ojiz odamlarning azob chekishiga yo'l qo'yib bergani sabab gunohkor deb topilib, jannatga kiritilmaydi. Biroq Yigitning do'stiga sadoqati gunohlarini kamaytirib, jannatga kirishiga yo'l ochadi.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf "Rayhon" she'rida suvning birdaniga ikkita: jannat va arshi a'lo chashmasi analoglarini ketma-ket qo'llagan:

Gulga tegsa gulxan paydo qiladur,

Suvga tegsa suvni yondirar yuzing.

**Sen Arshi a'loda jannatiy chashma,**

Men yerda yonaman tomchingga tashna.<sup>16</sup>

O'ziga xos mubolag'a negiziga qurilgan ushbu misralarda suvni-da yondirishga qodir muhabbat alangasi ta'rifi keltirilgan. Go'zal va suyakli yor Arshi a'lodagi chashmaga tenglashtirilmoqda. Unga oshiq xokisor yigit esa yuksaklikdagi ma'shuqasining diydoriga shunchalik mushtoqki, uning bu holati tomchiga zor turgan qaqragan er suratini eslatadi.

**Jannat qopqasida tirband olamon,**

Bari ham rozidir, bari ham masrur.

Bunda orzusiga erishgan inson,

**Jannati** degan so'z yangrardi mag`rur.

O'rnidan jilmasdi bir banda faqat,

Hamma hayron edi boqib bu holga.

**Jannatga** shoshmagan kimdir bul ummat?

---

<sup>16</sup>Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз, 112-бет.

**Farishtalar** tushib tutdi savolga.<sup>17</sup>

Abdulla Oripovning Ashurali Jo'rayevga bag'ishlangan "Jannat qopqasida" she'ridan keltirilgan bu misralardagi jannat, jannati, farishta so'zlari mifonimlar sifatida e'tiborni tortadi.

Ko'pchilik shoirlar o'z yurtini jannatga mengzab kuylashadi. Ulardan biri Muhammad Yusufdir:

Ko'hna go'zal bizning Farg'ona,  
Qiyosi yo'q **jannat maskandir**.<sup>18</sup>

Muhammad Yusuf "Bor bo'lsin" sarlavhali she'rida qizi bor xonadonni "jannatning yo'li" deb ta'riflaydi:

Qiz bor uying fayzi bo'lak deydilar,  
Jannat yo'li – qiz bor yo'lak deydilar.<sup>19</sup>

Muhammad Yusuf yana bir she'rida "jannatning to'ri" iborasini qo'llagan. Ko'pincha bu ibora xalq olqishlarida keng uchraydi. U orqali insonlarga qilgan ezgu amallari uchun jannat to'ridan joy olishi istagi izhor qilinadi:

Zamin erin zo'rin oling,  
Jannatining to'rin oling.  
O'zbekiston obodini  
Menshga bering, menga bering.<sup>20</sup>

Umuman aytganda, zamonaviy she'rlar tilida jannat bilan bir qatorda o'zga dunyo haqidagi qadim mifologik qarashlar negizida yana **oxirat**, **do'zax** kabi mifonimlar ham uchraydi. Bunga Abdulla Oripovning to'rt misradan iborat "Oxirat" she'rini misol keltirish mumkin:

Shogird ustoziga ayladi xitob:  
- Oxirat belgisin aysangiz bilib.  
Ustoz o'yga cho'mib qildilar javob:  
- **Ya'juj-ma'juj** chiqar, oq xalat kiyib.<sup>21</sup>

<sup>17</sup> Оripов А. Охират / Эверест ва уммон, 45-бет.

<sup>18</sup> Муҳаммад Юсуф. Муддао / Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.29.

<sup>19</sup> Муҳаммад Юсуф. Бор бўлсин / Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.29.

<sup>20</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.220.

Bu misralardagi **oxirat, Ya'juj-ma'juj** mifonimlar bo'lib, xalqning so'nggi kun haqidagi mifologik qarashlarini o'zida atab keladi.

Ba'zan “oxirat” mifonimi “Ro'zi Mahshar” ko'rinishida ifoda etiladi. Bu mifonim ham zamonaviy she'rlar tilida uchraydi:

Zulmki, ustuvor bo'ldimi agar,  
Endi hamrohingdir o'kinch va hasrat.  
Avlodlar kechmishin to **ro'zi Mahshar**  
Kuzatib turgaydir Sog`uniy hazrat.<sup>22</sup>

Shuningdek, zamonaviy she'rlarda **Qiyomat-qoyim** mifonimiga ham duch kelish mumkin:

Ozroqqina mehr bergil, Bizlarga Alloh,  
Ozroqqina shafqat ham ber, Qodir Xudoyim Alloh,  
Er yuzini qoplab borar Faqat ohu voh,  
Hamma joyda bamisoli Qiyomat-qoyim.<sup>23</sup>

Lekin “qiyomat” so'zi “qoyim” so'zisiz alohida ham keltiriladi:

**Qiyomat**da qorayar quyosh,  
Osmon qora dudga to'ladi.  
Munofiqlar mushukday yuvosh,  
Fohishalar otin bo'ladi.<sup>24</sup>

Shoir Muhammad Yusufning “Qiyomat” sarlavhali she'ridan olingan ushbu misralar davom etar ekan, unda qiyomatda qurbaqa bulbulga, qamishzorlar toqqa aylanishi, qo'ng'izchalar duldul bo'lib, o'g'rilar chorboqqa qorovul bo'lishi, qullarning qorni to'qu, ularning xojalari nonga zor bo'lishi, shoir bilan shohning ishi yo'q, zindonbonlar qo'shiqlar yozishi, yomg'ir – sharob, gazagi – ilon, hech kim do'stlari bilan bir qadah may ichib, bir jom qon ichsa-da, qusmasligi, to'rt faslning qishi bo'lmasligi, hamma tiz cho'kib, Muhammadni eslab qolishi bayon etiladi.

---

<sup>21</sup> Орипов А. Жаннат копкасида / Эверест ва уммон, 47-бет.

<sup>22</sup> Орипов А. Соғуний / Эверест ва уммон, 138-бет.

<sup>23</sup> Орипов А. Мангу паноҳ / Эверест ва уммон, 267-бет.

<sup>24</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.235.

Abdulla Oripov she'rlarida odamzot oyog`i etmagan koinot “jannat” deb atalganiga guvoh bo'lish mumkin:

Oxiri likobcha toliqib behol,  
Mingchinor bag`rida tindi bir fursat.

Quvonchni etkazdi fazoga darhol:

- Jannat shu erdadir, shu erda jannat!<sup>25</sup>

**Do'zax** – jannatning teskarisi. U – gunohkor bandalar qo'nim topadigan mifotoponim.

Ro'para kelsa kim, surishajakmiz,  
Shubha yo'q, orzuga erishajakmiz.  
Ko'p borsa, Do'zaxda ko'rishajakmiz,  
Abdulla Orifga yaqin yurmagin.<sup>26</sup>

**Farishta** ham mifonimlardan bridir. She'rlarda ko'pincha Bola yoki Ona obrazlarining farishta obrazi bilan sifatlanishi kuzatiladi. Ularning yonma-yon tasvirlanishi bejiz emas. Chunki bolaning begunohligi farishtaga o'xshatiladi. Aytishlaricha, qiz bolalar 9 yoshgacha, o'g'il bolalar 12 yoshgacha begunoh hisoblanarkan. Ana shu haqdagi qarashlar afsonalarda bola obrazini farishta obrazi bilan bog`lab tasvirlashga asos bo'lganligi, shubhasiz.

Farishta obraziga murojaat zamonaviy shoirlar ijodida ko'p kuzatiladi. Masalan, Abdulla Oripov “Tutash dunyolar” she'rida shunday yozadi:

**Sodiq farishtangiz** posbondir, illo,  
Xonangiz – koinot mudom sarishta.  
Erda ro'zg`or qilsa bir kun mabodo,  
Aqldan ozardi o'sha **farishta**.<sup>27</sup>

Farishta obrazi Muhammad Yusuf she'rlarida juda ko'p uchraydi. Shoir o'z she'rlarida sevgilisiga dil izhorini bildirar ekan, bevosita unga “farishtam” deb murojaat qiladi:

U so'z kutar, uni sen kutib oylab,

---

<sup>25</sup> Орипов А. Учар ликобча / Эверест ва уммон, 115-бет.

<sup>26</sup> Орипов А. Ҳангома / Эверест ва уммон, 302-бет.

<sup>27</sup> Орипов А. Туташ дунёлар / Эверест ва уммон, 64-65-бетлар.

Bir umr yo'l qarab ko'zing toladi.  
Sevgilim, farishtam.... tentagim, yo rab,  
Baxtingni yarmini she'rim taladi!..<sup>28</sup>

**Semurg`.** Shoir «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg`» poemalarida xalq ertaklariga aloqador syujet, motiv, obrazlardan unumli foydalanib, ularga xos fantastik, mifologik obrazlarni stilizastiyalash asosida «Semurg`»da dev, Yalmog`iz, Semurg` obrazlarini yaratgan.

Aytaylik, Semurg` o'zbek folklorida keng tarqalgan mifonimlardan biridir. Turkiy xalqlar zoomifologiyasida muhim semantik mazmun kasb etadigan bu poetik timsol homiy kuch sifatida ulkan qush ko'rinishida, magik qudratga ega jonivor qiyofasida gavalantiriladi. Semurg` – dunyo xalqlari folkloridagi mushtarak mifologik obrazlardan biri. U, asosan, hayot daraxti haqidagi mifologik tasavvurlar bilan bog`lab talqin etiladi. Mifologik tasavvurlarga ko'ra, u hayot daraxtining ustida in qurib yashaydi. Shuning uchun ham bu obraz sehrli-fantastik tipdagi ertak va romanik dostonlar syujetida ko'proq uchraydi. Ertak qahramoni bahaybat chinor ustidagi Semurg` uyasini, undagi polaponlarni yovuz ilon hamlasidan qutqarib qoladi. Bu motiv Semurg` obrazi uchraydigan deyarli barcha ertak va dostonlarda ana shunday takrorlanib keladi.

Semurg` obrazi o'zida abadiy hayot g`oyasini ifoda etadi. Shuning uchun u hayot daraxti haqidagi mifologik qarashlar bilan bog`liq. Semurg` obrazi misolida ibtidoiy insonlarning jonning o'lmasligi, bir vujudan boshqa vujudga ko'chib yurishga, turli evrilishlarga uchrashiga ishonchlar ham ifoda etiladi. Bunday tushunchalar folklorshunoslik va etnologiyada animizm deb yuritiladi.

Semurg` haqidagi mifik tasavvurlar genezisi qadimgi insonlarning homiy kuchlar, Ajdodlar kulti, Qush kulti, jonni qush ko'rinishida tasavvur qilishga asoslangan animistik tushunchalariga aloqador estetik qarashlar zaminida shakllangan va epik talqin qilina borgan.

Semurg` asli forscha so'z bo'lib, o'ttizta qush demakdir. Folklorshunos K.V.Treverning fikricha, Semurg` obrazining tarixiy asoslari qadimgi O'rta

---

<sup>28</sup> Мухаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.42.

Osiyoliklar mifologiyasida mavjud bo'lgan Sayana merug`a nomli xayoliy qush haqidagi qarashlarga borib taqaladi. Bu qush it boshli, parranda siyratli holatda tasavvur qilingan.

Semurg` haqidagi dastlabki ma'lumotni zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da uchramiz. Asarning 14-yashtida tasvirlanishicha, "Sayana merug`a" degan bahaybat qush Varkasha dengizining o'rtasidagi "hayot daraxti"ning tepasida uya qurgan. Bulutdek ulug`vor qanotlari bilan "hayot daraxti"ni yovuzlik kuchlaridan himoya qiluvchi "Sayana merug`a" (Semurg`) haqidagi ilk miflar, olimlarning fikricha, Varkasha yoki "Qirg`oqsiz dengiz" deb ataluvchi qadimiy Xorazm vohasida yaratilgan. Ajdodlarimiz abadiy hayot haqidagi ideallarini o'zida mujassamlashtirgan bu qushning haqiqiy yordamiga ishonib, unga sig`inganlar.

Xullas, Semurg` – xayoliy, mifologik qushlardan biri bo'lib, o'zbek folklorida alohida o'rin tutadi. Qadimgi ajdodlarimizning g`ayritabiiy xususiyatlarga ega deb tasavvur qilingan qushlar bilan bog`liq mifologik inonchlari, qush kultining folklor an'analariga ta'siri va jonli qush suvratida gavdalantirishga asoslangan animistik qarashlar Semurg` tipidagi obrazlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Lekin zamonaviy she'riyatda ko'pincha uning Humo varianti tilga olinishi kuzatiladi:

Doim boshingizga **Humolar** kelgay,  
Elga ham to'y birlan navolar kelgay.  
Qancha salom kelgay sizga, saxiy zot,  
Qancha muhtojlardan duolar kelgay.<sup>29</sup>

Xulosa qilib aytganda, mifologik obrazlarni atovchi mifonimlar she'riy nutqda ham ko'p uchraydi. She'rda ular obraz nomi sifatida uchrab, muayyan badiiy vazifalarni bajarib keladi.

---

<sup>29</sup> Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. Шеърлар, таржималар. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 225-бет.

## II BOB. ZAMONAVIY SHE'RIYATDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING TURLARI

### II.1. Kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar (Yalmog`iz, Jodugar, Alvasti, Ajina) talqini

Yalmog`iz, Jodugar, Alvasti, Ajina og`zaki adabiyotda ko`p uchraydigan mifologik obrazlardan bo`lib, ular odatda xunuk, tasqara, irkit, yovuz kampir qiyofasida talqin etiladi.

**Yalmog`iz** folklorda yovuzlik timsolida ifodalanadigan mifologik obrazlardan biridir. Folklorshunos Komil Imomov “yalmog`izni sinkretik obraz, u xalq eposida konflikt kelib chiqishi yoki konflikt echimiga sabab bo`luvchi personaj” deb hisoblaydi. Yozma she`riyatda yalmog`iz obrazini stilizatsiya qilishda uning yamlamay yutuvchi, to`ymas va ochofat xususiyati nazarda tutilib, u orqali g`am, urush, ochko`zlik kabi tushunchalarning ramziy mohiyatini ifoda etishda foydalaniladi. Jumladan, shoira Oydin Hojiyevaning “Tillo sochingni tobutga o`rdi, Urush – yalmog`iz!”, “Qo`ling bog`lab, yalmog`izday kuldi g`am” satrlari shu jihatdan e`tiborlidir. Odatda, yalmog`iz tutib olgan jonzotini bog`lab qo`yib, xoxolab kulishi ertaklarda tasvirlanadi. Shoira mana shu epik tasvir usulidan foydalanib, g`amni yalmog`izga barobar qilmoqda.

“Anqo qush” nomli o`zbek xalq ertagida yalmog`izning og`zida o`ttiz ikki tishidan birovi ham qolmay tushib ketganligi”, “Olovpolvon” ertagida esa uning devga yordamchiligi alohida ta`kidlanishini inobatga olsak, xalq nasriy asarlarida yalmog`iz kampir timsoli asotirlardagi momo obrazi ta`sirida, aniqrog`i, momo ruhga ishonch ta`sirida shakllanganligi seziladi.

Kim yolg`izdir?

Maskani yo`q el yolg`iz,

O`zga yurtda o`sgani yo`q el yolg`iz.

Ertakdagi o`ttiz boshli **Yalmog`iz**

Yovuzni ham vatani bor dunyoda,

## Nega yig`lar qrimtatar dunyoda?..<sup>30</sup>

Xalqning ajina va alvasti bilan bog`liq tasavvur-tushunchalari ertaklarda yalmog`iz hamda jodugar kampir obraziga singdirilganligi ham anglashiladi. Chunki yalmog`iz kampirning portreti ertaklarda xuddi ajina va alvastining xalq asotir va afsonalaridagi talqiniga mos kelishi kuzatiladi. Ma`lumki, yalmog`iz va jodugar kampir, odatda, keksa ayol qiyofasida, sochlari uzun, ko`kraklari osilib erga tegib turgan ko`rinishda tasvirlanadi. Bolalar va yosh yigit-qizlarni ta`qib qilish esa ularga xos xususiyat sifatida ko`rsatiladi. Shuningdek, yalmog`iz va jodugar kampir ham xuddi ajina singari ma`lum bir tilsim predmetlarga egalik qiladilar. Ertaklarda yalmog`izning tilsim oynasi, sehrli tarog`i, qayroqtoshi, qaychisi, ignasi borligiga alohida e`tibor qaratiladi. Jumladan, Oybek oradan yigirma yil o`tib, taniqli adabiyotshunos Umarali Normatov o`rinli ta`kidlaganiday: «XX asrning eng mudhish hodisalaridan biri – ikkinchi jahon urushi poyonida yapon zaminida sodir etilgan – bashariyat tamadduni tarixidagi mislsiz ofat – atom qurolini ishga solish tufayli sanoqli daqiqalarda ikki yuz mingdan ortiq tinch aholi yostig`ini quritgan, yana necha minglab tirik qolganlar taniyu qalbini bir umrga jarohatlagan, butun bashariyat ahlini vahshatga solgan mudhish hodisa haqida qalam tebratadi». Shoir yuragining qat-qatlariga yashiringan ulug` dardni – «davr jarohatining qalbdagi asoratlari»ni satrlarga tizib, “Qalbim jarohati” nomli dunyo adabiyoti mezonlaridagi lirik asarni bunyodga keltirdi. Bu dostonning har bir satri chuqur insoniy dard, mung va iztirob bilan sug`orilgan. Shoir atom bombasini «osmonda bir qopchiq og`u», «yalmog`iz o`ti», «ofat-quyosh», «ajal-nur», «olov ajdari» kabi tashbehlar bilan ifodalab, shu qiyoslar asosida inson hayotini tahlikaga solgan bu qurolning dahshatlarini aks ettiradi:

Har kimda kundalik bir g`avg`o, bir ish

Kim bilur – osmonda bir qopchiq og`u.

Dostonda fojيانing yuz berishi quyidagicha hayotiy tasvir etilgan:

Ohista chayqalib tong shamolida

Parashyut tushmoqda ko`tarib ajal

---

<sup>30</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.109.

Soat naq sakkizu o'n besh daqiqa

Yorildi ajalning qopi bemahal<sup>31</sup>

Shu tariqa «davr balosi» – samolyotning «shum qanoti»dan «yalmog`iz o'ti» – bomba insonlar ustiga endirildi. Ko'z ochib-yumguncha «yuz mingcha odamlar kulga» aylandi. Shoir bu haqda yozar ekan, Amerikaning ajalni olib kelgan samolyotini «shum kalxat», uning o'zini «tengi yo'q jallod» metaforalari orqali ataydi. Atom bombasi nurida qovjiragan jasadlarni «ko'mir»ga, nobud bo'lgan insonlar orzu-istaklarini «kuygan tabassum»ga mengzaydi. Bu fojia tufayli yuz ming odam hayotni bevaqt tark etgan bo'lsa, yana shuncha jon majruh va xasta bo'lgani ma'lum:

Ufqda bulutlar qonlarda suzar  
Dud burqir xastalar nola-ohida  
Vahm changalida qovjirak qalblar  
Bulutday chayqalur g'am nigohida.

Shoir tashxis bilan ziynatlagan misralarida fojidan keyingi holat va manzaralarni ham tasvir etadi. U o'lim butkul soya solgan shaharda hatto marsiya aytuvchi inson ham qolmaganidan bu ishni tilsiz, zabonsiz dengiz o'z zimmasiga olganligini achinish va buyuk dard bilan bayon etadi. Bu o'rinda Oybek xalq ishonchlariga tayanib, jon oluvchi farishta **Azroil** nomini talmeh sifatida qo'llab, hatto bunday yovuzlikka u ham qodir emasligini ta'kidlab: «Azroil, insondan, kel, ol saboqni», deya hayqiradi. Ma'lumki, Azroil ham folklordagi mifonimlardan biridir.

**Alvasti va ajina** – o'zbek folklorida keng tarqalgan mifologik obrazlardan bo'lib, ular odatda, inson qiyofasida tasvirlanadi. Chunki qadimgi odamlar ruhlar olamini insonlar olamiga o'xshatishgan.

Alvasti va ajina odamlarga zarar etkazuvchi momo ruhlar qatoriga kiradi. Alvasti ko'pincha insonning asab tizimini ishdan chiqarib, uni ruhiy kasallikka duchor qilishi aytiladi. Alvasti va ajina bir-biridan gavda ko'rinishiga ko'ra farqlanadi.

---

<sup>31</sup> Ойбек. Қалбим жароҳати. Достон, 58-бет.

Alvasti boshqa demonologik personajlar orasida o'ziga xos ko'rinishi bilan alohida ajralib turadi. U ko'pincha antropomorf qiyofada tasvirlanadi. Biroq alvasti odamlarning ko'ziga turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Alvasti **juda semiz, beso'naqay**, yalang'och yovvoyi ayol yoki badanini jun qoplagan, oriq-novcha, qorachadan kelgan, uzun to'zg'igan sochlari elkalari osha yoyilgan, ko'kraklari juda uzun, osilgan; bir ko'kragini elkasi osha orqasiga tashlab olgan. Bir elkasiga xurjun osib olgan, juda iflos, kiyimlari yirtiq, usti-boshi ko'rimsiz kampir qiyofasida tasvirlanadi. Uning qora oriq qo'llari nihoyatda uzun bo'lib, tirnoqlari juda o'skindir. Alvastining ko'rinishi maymunni ham eslatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayrim ertaklarda magik qudratga ega demonologik personaj afsun-duo bilan maymun ko'rinishiga evriladi. Masalan, bunga "Bulbuligo'yo" ertagi syujetida uchraydigan maymun pari obrazi misol bo'la oladi.<sup>32</sup>

Tojik folklorshunosi O.Murodov **alvasti** nomini – ol, al-basti (al bosib ketdi) degan ma'noda izohlaydi.<sup>33</sup> Arablar alvastini Ummisimiyon deydi. Chunki alvasti yovuz momo ruhlardan biri bo'lib, ayniqsa, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni nobud qilishga, ona ko'krigidagi sutni quritishga harakat qilarkan. Shuning uchun toza tuqqan xotinlar sutini alvastining zarari tegmasin, zarari o'ziga o'tsin deb, 3-7 kungacha pishak-kuchuk bolalariga sog'ib berganlar. Bunday paytda ona va bolani momo-doya doimiy o'z nazoratiga olgan. Ularga tez-tez isiriq tutatib turilgan.

Alvasti hatto erkaklarga ham zarar etkazib, bepusht qilishi mumkinligi aytiladi.

Tasavvurlarga ko'ra, alvasti qirq kungacha uxlab, faqat bir kun ovqat izlab chiqarmish. Suv alvasti hayoti uchun eng zarur vosita sanaladi. Shuning uchun katta ariqlar bo'yida, daryo yoqasida, hovuz yoki quduqlar oldida unga duch kelish mumkinligi aytiladi. U odamlar ko'ziga sochini taroq bilan tarab turgan kekxa ayol yoki yosh qiz qiyofasida ko'rinar.

---

<sup>32</sup> Булбуллигўё // Ўзбек халқ эртаклари. 2 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.29-31.

<sup>33</sup> Муродов О. Древние образы мифологии у таджиков долины Зеравшана. Душанбе: Дониш, 1979. – С. 115.

Xalq orasida alvasti va ajinaning biror uy hayvoni yoki yirtqich hayvon ko'rinishida uchrashi ham aytiladi.

**Ajina obrazi** O'rta Osiyo xalqlari folklorida uchraydigan demonologik obrazlardan biridir. Ajina o'zbek folkloridagi alohida mifologik personaj, yovuz momo ruhlardan biri sanaladi. Xalq orasida Oллоh bergan omonat jonga xiyonat qilib, o'z joniga qasd qilgan insonlarning ruhini ruhiy olam qabul qilmaydi, natijada qarovsiz qolgan ruh ajinaga aylanadi, degan ishonch yuradi. Ammo ajina, asosan, kichkina tasqara kampir, jandapo'sh jalojin keksa ayol qiyofasida gavdalantiriladi. Jumladan:

Ayni kuz, bog`larning pishgan mevasi,  
Chumoli safiga tashlayman razm.  
Olma turshagining bordir egasi,  
Qarri ajinalar qilurlar bazm.<sup>34</sup>

Ushbu she'rda xalqning ajina haqidagi tasavvur-tushunchasi, uning qari, keksa ayol qiyofasida namoyon bo'lishi, asosan, odamga bog`da yo'liqishi, ko'pincha ajinalar bazm uyushtirishi to'g'risidagi mifologik qarashlar ifoda etilgan.

Ajina jindan va alvastidan o'ziga xos ko'rinishi, turish-turmushi, yashash manzili bilan farqlanadi. Chunki jin erkak jinsida, ajina esa ayol jinsida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ajina nomi jin so'zining ko'pligidan kelib chiqmagan. Ajina arabcha jin so'zining ko'pligini bildirgandek tuyuladi, chunki arab tilida "a" qo'shimchasi so'zning old qismidan qo'shilib, "-lar" ko'plik shaklini hosil qilib keladi. Masalan, taraf so'zi ko'plikda "atrof", she'r so'zi ko'plikda "ash'or" tarzida qo'llanadi. Lekin bu o'rinda ajina jinlar ma'nosini bildirmaydi. Ajina alohida mifologik personajning nomi hisoblanadi. Qolaversa, u ko'plikda "ajinalar" deb ifodalanib keladi.

Xalq orasida "ajina shamol" degan ibora mavjud. Bu ibora ajinaning ko'pincha ko'plashib, lashkar bo'lib yurishini bildiradi.

---

<sup>34</sup> Орипов А. Куз ташрифи / Эверест ва уммон, 240-бет.

Ajina ko'pincha daraxtlar ustida, xarobazorlarda, mozorlarda, tashlandiq va kimsasiz joylarda uchrashi aytiladi. Ajinalar odamsiz joylarda, tashlandiq bog`-rog`larda, suvi qurigan ariqlar ichida, tegirmon va juvozxonalarda ko'pchilik bo'lib bazm qilishni yaxshi ko'rarmish. Ular odamlar bilan uchrashganda o'zlarini juda mehribon, shirinso'z, mehmondo'st qilib ko'rsatarkan. Ko'pincha, uchragan odamni ular bazmga chorlashga urinarkan. Ular odamlar ko'ziga echkisini yo'qotgan tanish ayol yoki echki, yo qo'g`irchoq, yo haykal ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkinligi aytiladi. U ko'pincha odamlar ko'ziga yordamga muhtoj kampir yoki qiz ko'rinishida tashlanar ekan. Kimki unga yordam ko'rsatsa, bundan o'zi ozor ko'rar ekan.

Ajina haqidagi mifologik hikoyalarda uning ayrim g`ayritabiiy predmetlari: sehrli kitobi, chaqasi, sehrli tarog`i va haykal-tumori borligi aytiladi. Bu belgi uning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Kimki ajinaga yo'liqqanda, uning predmetlarini qo'lga kiritisa, ajina kuchsizlanib, o'sha odamga bir umr tobe bo'lib qolar ekan. Buning uchun u bilan to'qnash kelganda, ko'krigidan yo sochidan, yoxud bo'ynidan mahkam qisib turib, qo'lidagi narsalarni olish zarurligi uqtiriladi. Kimki shunday qilolsa, ajina bu odamning etti avlodiga zarar etkazolmasligi aytiladi. Faqat ajinani zabt etayotganda o'sha odam bu talabni uning bo'yniga qo'ya olmog`i shartligi uqtiriladi.

Bu qarashlarning barchasi folklor namunalarida muayyan badiiy obraz va epik motiv darajasida o'z aksini topganligi esa bizga ma'lum.

Xalq etraklarida ajina, alvasti nomi ko'p keltirilmasa-da, biroq ularga xos xususiyatlarni ifoda etuvchi tasvirlarga duch kelish mumkin. Masalan, "Elzod bilan Gulxumor" nomli o'zbek xalq ertagida magik kuchga ega kampir va uning 99 shumlikni aytib beradigan kitobi haqida gapiriladi. Tabiiyki, bu tasvir orqali xalqning ajina va uning kitobi haqidagi mifologik qarashlari beixtiyor yodga keladi.

Xulosa qilib aytganda, yalmog`iz, ajina, alvasti, jodugar kabilar kampir qiyofasida talqin etiluvchi mifologik obrazlar bo'lib, ko'pincha ular yovuzlik

timsolida ramziy mohiyat kasb etishi kuzatiladi. Ular bir-biridan ko'rinishi, badiiy talqini jihatidan farqlanib turadi.

## **II.2. Maxluq qiyofasidagi mifologik obrazlar (Dev, shayton, ajdaho) talqini**

She'riyatda mifologik obrazlar stilizastiyasi ham etakchi tamoyilga aylangan. **Dev** shunday mifologik obrazlardan biridir. Yozma she'riyat devlarni yovuzlik ramzi sifatida stilizastiya qilsa, folklorda devlar agar insonning ustunligini tan olsa, o'sha daqiqadan boshlab unga xizmat qila boshlashi bayon etiladi.

Yovuz devlarimni uxlatdim zo'rg`a.

E'tiborli tomoni shundaki, dev obrazidan har bir davr shoirlari har xil timsoliy mohiyatda foydalanishgan. Masalan, tasavvuf shoirlari nafsni dev timsolida aks ettirishgan bo'lishsa, sho'ro shoirlari devni mustamlakachilarning xizmatkori sifatida tasvirlashdi.

Buvi, **jodugarning** qo'lidagi baxt,  
**Hur pari** mixlangan ming yillik daraxt,  
**Devlar** sig`inguvchi buqalamun taxt  
Nega qulamadi?

Ushbu misralarda birato'la to'rtta mifonim: jodugar, hur, pari, dev nomi keltirilmoqda.

Vatanimiz go'yo jodulangan, xalq erksiz, baxtsiz bo'lsa-da, buni anglamas, anglasa-da, ovoz chiqarishdan cho'chir, devlardan qo'rqqar edi. Shoirlar xalq qalbidagi bu qo'rquvni dev obrazi stilizastiyasiga xos xususiyat sifatida talqin qildilar:

Bir buyuk qo'rquv bor uning ichinda,  
Ko'zaning ichiga qamalgandek **dev**.

Yuragida dev bo'lgan bu zotlar, shoirning aytishicha, o'z otasini sotgan, endi o'g'lini sotishi aniq. Dev – qo'rquv shunday joylashganki, Sulaymon muhrini buzsang ham ko'ngil ko'zasidan chiqib kelolmaydi.

**Dev** o'zbek folklorining an'anaviy mifologik personajlaridan biridir. Dev obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi. Bu obraz afsona, ertak, doston matnlarida ko'p uchraydi. O'zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini Jabbor Eshonqulov tomonidan ertak va dostonlar syujeti misolida alohida maxsus o'rganilgan.<sup>35</sup>

Mahoratli adib Abdulla Qahhor “Pora” feletonida ertak janriga xos ifoda uslubidan foydalanib, poraxo'r amaldorning kirdikorlarini dev obrazi vositasida ochib tashlasa, “Dunyo qachon erkin nafas oladi” feletoni tarkibida qadimgi bir afsonani keltirib, undagi mal'un dev obrazini yovuz Gitler obrazi bilan tenglashtiradi.

Usmon Qo'chqorning yana “Bu qanday dev uxlab yotar” she'ri ham bu jihatdan diqqatga sazovor. She'rda dev uxlab yotgan holat motivi, uch og'ayni botirlarning yo'l tanlashi, ajdarhoning har kuni bir ho'kiz va bir qizni eyishi motivlari tasvirlangan. Shoirning maqsadi shuki, dev uxlab yotgan bo'lsa-da, “asrlar unga qarshi kurashmay, elkalari yag'ir bo'lib ishlayotganini”, “borsa kelmas” yana kenja botirga qolganini, shohning izmi o'zida emas, ajdahodaligini, ajdahoni o'ldirishni o'ylamay, bir-birini bosib-yanchib borayotgan odamzodning o'lkasi qaysi ekanligini she'rxonga uqtirishdir.

Yozma adabiyotda ijobiy mifologik obrazlar sifatida Xizr, chiltonlar, pari; salbiy mifologik obrazlar sifatida iblis, shayton, jin, ajina, alvasti, jodugar, Yalmog'iz, dev kabilar qo'llanib kelgani kuzatiladi.

**Sariq devlar** qildi daf,

Kal pahlavon o'lmadi.

Go'r ichida bulay alp,

Go'ro'g'lijon o'lmadi.

---

<sup>35</sup> Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фанлари номзоди...дисс автореф. – Тошкент, 1996. – Б.8-23.

Folklorshunos Jabbor Eshonqulning aytishicha, devlar etti rang orqali sifatlanishi mumkin. U sariq rang xalq kosmogoniyasiga ko'ra, uchinchi iqlim – turk diyoriga daxldor bo'lib, quyosh bilan bog'langan deb hisoblaydi. Ammo she'rshunos Laylo Sharipova bu o'rinda shoir sariq dev deganda, bularni nazarda tutmay, yurtimizni qaramlikda tutib turgan millatning rangiga ishora qiladi, deb hisoblaydi.<sup>36</sup>

Ko'rinyaptiki, pari, jin, dev singari mifologik-demonologik personajlar, asosan, toponimik afsonalar syujetida uchraydi.

Juda ko'p toponimlarning kelib chiqishi devlar nomi bilan bog'lab talqin qilinadi. Bunga “Devqal'a”, “Devsolgan”, “G'ijduvon” kabi toponimik afsonalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Ajdaho** obrazi orqali, o'z navbatida, feodal davr bosqinchi hukmdorlari timsoliga ham kinoya qilingan. Bunda ajdarhoning o'zganliklardan har kuni tanavvul qilish uchun o'ttiz o'g'il bilan o'ttiz qiz so'rashi motivi aslida bosqinchi hukmdorning o'zi bosib olgan hududlardan katta o'lpon undirishi yoki yiliga ko'plab yosh yigit-qizlarni qullikka olib ketishi g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan. O'z farzandlarining qullikka olinishi esa odamlarni qattiq larzaga solgan. Shu nuqtai nazardan qaralsa, afsonada xalqning katta ijtimoiy dardi badiiy ko'rinishda bayon etilganligi anglashiladi.

**Shayton** manmanligi uchun la'natlangan bo'lib, **Azozil** deyilgan. Shayton Odam Atoni yo'ldan urgan, insonni yomonlikka boshlovchi kuch. U xalq og'zaki ijodida aynan shu xususiyatlari bilan obrazlantiriladi. Yozma adabiyotda u buzg'unchi, yolg'onchi, ayyor insonlar, insonlikdan chiqqan zotlar ramzi sifatida o'zlashtirildi.

Sovliq o'zin har yonga otar,

Goh xudo, goh **shayton**ga otar.

Shayton xudoga qarama-qarshi qo'yilar ekan, islom dinida Allohga bas kelolmasligi qat'iy ishonch bilan aytilsa, yozma adabiyotda buzg'unchiligi bilan allohning ezgu ishlarini buzib yurishi aks ettiriladi.

---

<sup>36</sup> Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шаъриятида фольклоризм. – Т.: Фан, 2011. – 152 б.

Sen guvohsan, dunyoyi qadim,

Urolmadi yo'limdan **shayton**.

Ba'zan inson shaytondan ham ayyor, dog'uli ekani she'rlarda aks ettiriladi. Usmon Azimning "Shubha" she'ridagi "Bu **shayton** bo'lmasa bunchalar shayton", Eshqobil Shukurning "Payg'ambar eshigin..." deb boshlanuvchi she'ridagi "Shaytonni o'ttiz yil laqillatgan men" misralari bunga misoldir. **Iblis** (shayton) ayyor, buzg'unchigina emas, devlardan yuz bora yovuzroq hamdir. Uning aynan shu jihati shoirlarga tasvir va ifodada qo'l keladi. Shoirlar yovuz insonlarni iblis timsolida berish niyatida bu mifologik obrazni yozma she'riyatda stilizastiya qildilar:

Ular **Iblis** bilan tili bir o'rtoq,

Ular **Azroilga** sodiq choparlar.

Avval Usmonlarni sotib, keyinroq

Faryod ko'targan ham – laganbardorlar.<sup>37</sup>

Muhammad Yusuf laganbardorlarni iblisga o'rtoq sola turib, shu iblissifatlar Usmon Nosirlar boshiga etganini ta'kidlaydi.

Abdulla Oripov "Do'stlar va raqiblar" she'rida shayton haqida xalqona ishonchlar asosida shunday deyiladi:

Xudoyim urganu payg'ambar turtgan

Raqibning ustozini – Iblisdir beshak.<sup>38</sup>

Yana shoirning "Kechuv" she'rida ham Iblis obraziga murojaat qilingani ko'zga tashlanadi:

Iblis yo'ldan ozdirib,

Yo'qolib intizomi.

Avval men o'taman deb,

Bir-birin nuqishgandir.<sup>39</sup>

Muhammad Yusuf quyidagi misralarida Iblis va Shayton obrazlarini bir bandning o'zida qo'llaydi:

---

<sup>37</sup> Muhammad Yusuf. Saylanma: she'rlar, dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B.56.

<sup>38</sup> Oripov A. Dostlar va raqiblar. / Эверест ва уммон, 13-бет.

<sup>39</sup> Oripov A. Kechuv / Эверест ва уммон, 26-бет.

Iblisni inim deb quchdik gohida,  
Arshda arg`imchoqlar uchdik.  
Shayton bilan sharob ichdik gohida,  
G`aflatdan bo`shamay umr o`tkazdik...<sup>40</sup>

Bu misralardagi Arsh so`zi ham mifonimlardan biri bo`lib, Olloh makoni tushunchasini o`zida ifoda etadi.

Abdulla Oripovning “Yolg`onchi haqida ballada” she`rida shayton obrazi “sh” tovushi alliterastiyasi asosida shunday obrazlantirilgan:

Shu chiqdimi kamtarin jondan,  
Shaytonlikda o`tding shaytondan.  
Xudodan qo`rq, qo`rqin iymondan,  
Yolg`on aytma, sadag`ang ketay.<sup>41</sup>

Shayton (Iblis) – yovuz timsol sifatida qaralganidan, u hatto jannatga ham ravo ko`rilmaydi. Shu haqda A.Oripovning “Buyuk sabr” she`rida quyidagi misralar keltirilgan:

Bilib qo`y, Allohning keng dargohida  
Shafqat bo`lmagaydir kibrga aslo.  
Joying jahannamning tubi – chohida,  
Hatto, Iblisga u ko`rilmas ravo.<sup>42</sup>

Abdulla Oripovning shayton obrazi tavsifiga bag`ishlangan alohida to`rtligi ham mavjud. Unda shunday satrlar bor:

Sen daryoga cho`milgani borganding, Inson,  
Suvdan chiqsang, yo`qolibdi ko`ylak va ishton,  
Libosingni izlab tag`in ovora bo`lma,  
Allaqachon olib ketdi ularni Shayton.<sup>43</sup>

«Ko`zgodagi qiz» dostonida alvasti qiyofasidagi amaki Qodir mo`ylov Rahmonga engil-elpi yashashni targ`ib etadi:

---

<sup>40</sup> Мухаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарк, 2014. – Б.331.

<sup>41</sup> Оripов А. Шайтон / Эверест ва уммон, 266-бет.

<sup>42</sup> Оripов А. Буюк сабр / Эверест ва уммон, 229-бет.

<sup>43</sup> Оripов А. Буюк сабр / Эверест ва уммон, 229-бет.

Dev, parilar etagin ushlagin mahkam.

Hammaga ham ko'rinmas **Shayton**, –

Bir marta keladi yigitga omad,

Fursat kepti o'ynab kulib qol, – deydi.

Dalli kampir, Qodir mo'ylov Rahmonni o'z izmlariga sololmaganlaridan keyin Yosh juvon va O'rta yosh ayol uning yonidan atayin o'tib, o'zlariga qaratmoqchi bo'lishadi. Biroq Rahmon o'z e'tiqodi, hayotga qarashlarida mustahkam, irodali shaxs bo'lgani tufayli bunday shaytoniy kuchlar qutqusiga berilmaydi. Chunki qalbi sevgilisi Ra'noga nisbatan pok muhabbat bilan to'liq Rahmonni shayton qiyofasidagi kimsalar yo'ldan sira ozdirisholmaydi. Aslida shoir yaratgan bunday ramziy timsollar odamlar orasida uchraydigan ayrim kishilarga kinoyaviy ishoradir. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida har qanday axloqsizlikdan toyishmaydi. Asar mazmun-mohiyatiga ana shu fikrlar singdirilgan.

«Ra'noning savdosi»dostonida jinlar, pariylar dastlab oshiq-ma'shuq yigit-qizlar, o'rta yosh erkak va ayol qiyofasida ko'rinishadi va Rahmonning ko'z oldida turli qiliqlar qilib, uni axloqsizlikka etaklashga urinishadi. Asarda yana Rahmonning sinfdoshi Soli buzuq fe'li tufayli shayton qiyofasida tasvirlanadi. Aslida Rahmon bilgan Soli «halol, tortinchoq, qiz boladay muloyim» yigit edi. Biroq u engiltabiat ayolga yo'liqqach, shayton nusxasiga aylanadi.

Folklor asarlarida dev, pari, jin kabi mifologik personajlar asosiy qahramonga raqib sifatida harakat qilganda, ko'pincha qahramon bilan bo'lgan kurashda yoki tortishuvda, sinovda engilib, unga tobe, mute, qul sifatida xizmat ko'rsatishga mahkum etiladi. Bunda ular raqib personaj vazifasida emas, balki asosiy qahramonga yordamchi, madadkor sifatida faoliyat yuritadilar. Bu bilan insonning aql-zakovati, kuch-qudrati har qanday tilsimli kuchlardan yuksakligi ulug'lanadiki, xuddi shu g'oya yozma adabiyotda davkom ettirilgan.

Xullas, o'tgan XX asr she'riyatida ko'pincha folklordagi mifologik obrazlar nomini keltirish orqali etakchi g'oyani ochib berishga urinish kuchliligi seziladi. Xususan, yurtning ozod bo'lishi uchun jon kuydiradigan, xalqni uyg'otadigan epik

timsollar nomini keltirish bilan yosh avlod ongiga o'z ajdodlariga munosib voris bo'lib etishish g'oyasini singdirish ko'zda tutiladi.

Mustaqillik yillarida ham mifologik obrazlardan foydalanish an'anasi davom ettirildi. Endi istiqloq baxsh etgan baxtni tarannum etishda yovuz mifologik timsollarning mag'lubiyatini ta'kidlash, Humo hadya etgan baxtdan masrurlikni izhor qilish, Xizrga yo'liqqan kabi izlaganiga erishish va hokazo singari fikrlar ifodasiga duch kelinadi.

### **II.3. Inson qiyofasidagi mifologik obrazlar**

#### **(Xizr, pari, hur, jin) talqini**

**Xizr** o'zbek xalq tarixiy afsonalarida epik qahramonga homiy sifatida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy mifologik obrazlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi asarlarida Xizr obrazi qahramonga homiylik qiluvchi, yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, sehrlil narsalarni hadya etuvchi, og'ir ahvolda qolganlarni qutqaruvchi, buloqlarning suvini ravon qiluvchi g'aroyib personaj sifatida tasvirlanadi.

Xalq tiriklik suvi baxsh etgan mangu hayot haqidagi qarashlarini o'z ijodida **Xizr, Ilyos** kabi mifologik obrazlar timsolida mujassamlashtirgan bo'lsa, o'limdan so'ng hayotning davom etishi haqidagi qarashlarini quduq tubidan to qiyomatgacha makon tutgan Shohi Zinda haqidagi afsonalarda umumlashtirgan.

Afsonalarda Xizrning buloq, quduq yoki hovuz bo'yida uchrashi tasvirlanishi bejiz emas. Buniig sababini folklorshunos Mamatqul Jo'raev shunday tushuntiradi: "Chunki mifologik tasavvurlarga ko'ra, Xizr suv kulti bilan bevosita aloqador ezgulik homiysi sanaladi". Ana shu e'tiqodiy ishonch o'zbek xalq afsonalarida ham o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa, suvliklar nomi bilan bog'liq joy nomlari to'g'risidagi ("Namangansoy", "Jilbuloq" chashmasi va h.k. kabi) afsonalarda u yoki bu

toponimning kelib chiqishi ko'pincha Xizr sarguzashtlariga bog'lab talqin qilinishi kuzatiladi.

Mamatqul Jo'raev Xizr bilan bog'liq o'zbek xalq afsonalarida bu mifologik personaj boshiga mushkul savdo tushgan kishilarga homiylik qiluvchi afsonaviy xaloskor, dono va zukko maslahatchi, boqiy hayot suvini topib ichganligi uchun abadiy barhayotlikka erishgan afsonaviy qahramon, shifobaxsh chashmalar ko'zini ochgan g'ayri oddiy shaxs, cho'l va sahrolarda g'oyibdan paydo bo'lib, qiyin ahvolda qolgan yo'lovchilarga ko'mak beruvchi ezgulik timsoli, dehqon dalasiga mo'l hosil va baraka ato etuvchi hosildorlik ramzi, odamlarni hamisha qo'llab-quvvatlab yuradigan ezgu pir yoki aziz avliyolardan biri qiyofasida namoyon bo'lishini qayd qilar ekan, afsonalardagi Xizr obrazi ertak va dostonlarga nisbatan qadimiy mifologik qarashlarni o'zida mukammalroq aks ettirgan bo'lishini alohida ta'kidlaydi.<sup>44</sup> Folklorshunos K.Imomov esa Xizr obrazining o'zbek xalq afsonalarida ideal qahramon sifatida badiiy talqin qilinishini, shuning uchun u o'lim bilmas, zarb o'tmas, o'tda yonmas xususiyatda tasvirlanishini, uning bu xususiyati diniy mo'jiza emas, balki magik xususiyat ekanligini, shu sababli u bordan yo'q bo'lib, yo'qdan bor bo'lishni, goh odam, goh jonivor, goh biror buyum shaklida paydo bo'lib, qahramonning ezgulik yo'lida g'alaba qozonishiga ko'mak berishini qayd etadi.<sup>45</sup>

Furqat Nurmanov Xizr obrazining genezisi va uning o'zbek folkloridagi talqini masalasini maxsus tadqiq qilar ekan, u bilan bog'liq xalq qarashlarini umumlashtirib, atroflicha yoritishga harakat qiladi.<sup>46</sup>

Ko'rinyaptiki, afsonalarda Xizr obrazi real shaxslar obrazi bilan bir qatorda ishtirok etadi. U xayoliy-mifologik personaj hisoblanadi.

Xizr obraziga homiy sifatida murojaat qilish motivi Abdulla Oripovning "Ona nigohi" she'rida ham kuzatiladi:

### **Hazrati Xizrga yo'liqsam albat,**

---

<sup>44</sup> Жўраев М. Хизр // Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. (Ш.Шомусаров билан ҳамкорликда). – Т.: Фан, 2001. – Б.104-118.

<sup>45</sup> Имомов К. Афсона // Ўзбек фольклори очерклари. 3-томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1989, 9-бет.

<sup>46</sup> Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т., 2007. – Б.7-22.

**Faqat bir narsani so'rardim faqat:**

Yomon nazarlardan toliqdi ruhim,

Onam nigohini ko'rsating hazrat.<sup>47</sup>

Odamlar o'z hayoti davomida etti martagacha Xizrga yo'liqishi haqidagi ishonch bilang yashashadi. Shunda Xizrning suyuksiz barmog'ini ushlab, undan nima tilak so'rasa, u ijobat bo'ladi, deyishadi. Shoir she'rdagi xalqning shu ishonchiga ishora qilmoqda.

Muhammad Yusuf "Rafiqamga" she'rida umr yo'ldoshini Xizr yo'liqtirgan deb atab, o'z shukronasini izhor qilgan:

Osmonim yoritgan tobonim o'zing,

Dilimning to'rida avaylaganim,

Eng yorug' orzuim, armonim o'zing...

Seni yo'liqtirdi hazrati Xizr,

Boringga shukurlar, boringga shukur.<sup>48</sup>

Xizr ko'pincha xalqning hosildorlik kultlari haqidagi qarashlari bilan bog'lanadi. U dehqonlar homiysi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun Xizr odamlarga yashil to'nda ko'rinadi, deyiladi. Ammo Abdulla Oripovning "Kuz tashrifi" she'rida shu fasl ranggiga monandlashtirilib, Xizr sariq to'nda gavdalantirilgani kuzatiladi:

Porlab ko'rinadi Qutbda yulduz,

Osmon ham qoramtir – rangi aslidir.

**Sariq chakmon kiygan Xizr kabi kuz,**

Chindan u donishmand ruhlar faslidir.<sup>49</sup>

Oydin Hojievanning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlab yozilgan «Najot» dostoni bunga misol bo'la oladi. Etti «fasona» yoki qismdan iborat bu dostonda shoira shaxsga sig'inishning mash'um oqibatlarini, urush, turg'unlik yillarining ayanchli manzaralarini, maqsadsiz afg'on urushi fojialarini afsona termini orqali tasvirlagan. Shu yo'l bilan ijodkor xalq

<sup>47</sup> Орипов А. Эверест ва уммон. Шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б.10.

<sup>48</sup> Муҳаммад Юсуф. Рафиқамга / Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.353-354.

<sup>49</sup> Орипов А. Эверест ва уммон. Шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б.240.

qalbida uzoq yillardan buyon yashirib yotgan dardlarni, uning o'kinch va alamlarini badiiy aks ettirishni ko'zlagan. Asarning «Qirqinchi quti tilsimi», «Eldan chiqqan balo», «Asorat», «Hamid Sulaymon hasrati», «Murodbaxsh bobo hikoyati», «Xatar vodiysidan fasona» kabi qismlarida shoira o'tmishda ro'y bergan qatag'on va maqsadsiz afg'on urushi fojialarini afsona, ya'ni o'tmishdan xabar beruvchi hikoya tushunchasida ishlatgani kuzatiladi. Chunki bu asarda afsona janri tabiatiga xos asosiy belgi – voqelikning xayoliy uydirmaga asoslangan talqini kuzatilmaydi. Faqatgina «Bolalik bog`idan fasona» deb nomlangan birinchi qismda bu xususiyat biroz ko'zga tashlanadi, xolos. Unda shoira tug`ilib o'sgan Ro'zibiyon qishlog`ida yuz bergan sirli bir voqea haqida hikoya qilinadi. Bu Xizr va naqshinkor darvoza haqidagi g`amli hikoya bo'lib, unda qishloqdagi bolalarning «oq libosli, soqoli ko'ksiga tushgan» afsonaviy Xizr boboni doimiy kutib yashashlari, biroq qishloqdagi fayzu barakali naqshinkor darvozasi bor hovli oldida nogahon «bir bechora juldur chopon, oyoq yalang, yoqasi chok» holda paydo bo'lganligi, shundan so'ng o'sha xonadon boshiga og`ir kulfat tushganligi tasvirlanadi. Demak, asarda juldur kiyimli notanish cholning kelishi xonadon boshiga tushajak falokatdan ogohlantirishdir. Ayni paytda uning bu badiiy vazifasi afsonaviy Xizr obrazi vazifasiga parallel olinganligini sezish qiyin emas. Xususan, bu ularning kutilmaganda paydo bo'lib, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqelik haqida oldindan ogoh etishi vazifasida namoyon bo'ladi. Afsonaviy obrazning dostoniga kiritilishidan esa obraz stilizastiyasi vujudga kelgan. Demak, dostonda afsona janri stilizastiyasi emas, balki afsonaga xos obrazlardan biri stilizastiya qilingan, xolos. Aslida dostonda Xizr o'xshagan boboning bir ko'rinish berishi afsonaviy, mo''jizaviy holat bo'lganligi sabab shoira o'z asarini «fasona» deb atagan bo'lishi mumkin.

«Qirqinchi quti tilsimi» deb atalgan ikkinchi afsona shaxsga sig`inish yillarida arab imlosida bitilgan ko'plab durdona asarlar yoqib yuborilishi voqealaridan so'zlaydi. Unda tasvirlanishicha, Mavlavixon arabchada bitilgan kitoblar yondirilayotgan bir paytda juda ko'p noyob kitoblarni ko'madi. Lekin Alisher Navoiyning devonini «dafn» etarga jur'at topmaydi» va uni bir qizchaga

tuguncha qilib beradi. Sho'rovot qishlog'i tomon yo'l olgan qizcha soyga duch keladi. Ko'prik o'rnida yog'och nov bo'lib, undan o'tish mushkul edi:

Norasida xo'rsindi xomush,  
Aqli etmay biror tadbirga,  
«Alhamdu»ni aytdi faromush.

«Alhamdu» deyilganda «Fotiha» surasi nazarda tutilmoqda. Shu o'rinda shoira ertaklarga xos an'anaviy motivlardan biri – mushkul vaziyatlarda bosh qahramonga qushlar, hayvonlarning ko'mak berishi voqeasini doston syujetiga singdirishga urinib, ertakona motiv stilizastiyasini yuzaga keltiradi. Qizchaga novdan o'tishda tovushqon, to'rg'aylar yordam beradilar. To'rg'aylar poyandozni tumshug'iga tishlab, ikki yog'idan ushlab turishadi va shu tariqa qizcha soydan o'tib oladi. U haligi tugunchani Sho'rovotning bog'boni Farmon boboga topshiradi. Farmon bobo kitobni «bog' to'rida nazardan nihon qirquinchi bol qutiga soladi». Shu yo'l bilan Navoiyning devonini asrab qoladilar. Har safar asal yig'ish mavsumida oxirgi quti ochilmas edi. Farmon bobo:

– Hazratimning o'lmas so'zlari

Behroq asalari sutidan, – deydi.

Ko'rinadiki, ikkinchi afsonada ham hayotiy voqelik talqin qilinmoqda. Ammo xalq afsonalarida hayotiy voqelik emas, xayoliy uydirmaga asoslangan voqelik bayon etilishi janr tabiatini belgilovchi muhim belgilardan biridir. Shuning uchun shoira o'z asarlarini garchi fasona deb atagan bo'lsa-da, aslida buni istilohiy ma'noda qo'llamaganligini anglash kerak.

Dostonning «Eldan chiqqan balo» deb nomlangan qismida diniy kitoblarning yoqib tashlanishi, «Asorat» qismida esa milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizning yo'qotilishi bilan bog'liq hayotiy voqealar «afsona» nomi bilan aks ettirilgan. «Asorat»da shoira qishloqdagi kelinsalom udumini jonli tasvirlash uchun asar kompozistiyasiga «kelinsalom» matnlarini olib kirib, analitik folklorizmni vujudga keltirishga erishgan. Bu bilan o'z asarining milliylik ruhini, xalqchilligini ham yanada oshirgan.

Sirojiddin Sayyidning «Tanazzul yoki bir begonaning iztiroblari» dostonida insonning botiniy olamida kechadigan turfa qarama-qarshiliklar yoritib berilgan. Asardagi obrazlar ramziy ma'noga ega. Jumladan, Begona – qalb kishisi, u dunyoni ko'ngilsiz tasavvur etolmaydi. U hayotda ozor chekkan, iztiroblar iskanjasida qolgan kishilar timsolidir. Shu bois u o'zini taftish qiladi, umr yo'liga nazar tashlaydi:

... Hasratlarning hirqasiga o'zni burkayman.  
Kelaverar oq ot mingan oppoq mo'ysafid.  
Lekin menga yaqinlashmay yana qaytadi.  
Men ikkiga bo'linganman:  
Bir men bundadir.  
Bir men esa moziylarda takbir aytadi.  
Biroq bular bir-biriga begonadirlar.

E'tibor qilinsa, parchadagi «oq ot mingan oppoq mo'ysafid» tasviri folklordagi Xizr obrazini yodga soladi. Ammo Xizr ko'pincha piyoda kezadi. Shoir esa uni «oq ot mingan» holatda tasvir etmoqda. Xalq qarashlariga ko'ra, Xizr doimo biror ko'rinishda namoyon bo'ladi. Sirojiddin Sayyid aynan ana shu jihatga diqqatini qaratgan. Asarda bu dunyo ko'rguliklaridan ozor chekkan lirik obraz Xizrdan madad so'ramoqchi bo'ladi. Inson botinida hamisha ikki xil shaxs yashaydi. Begona ham qalbidagi ikki shaxsni ko'radi: biri moziy, ikkinchisi zamon kishisi. Zamon kishisining ma'naviy dunyosi, undagi kemtikliklar lirik obrazni qiynaydi. Chunki u mehru e'tiqodda moziy kishisidan ortda qolgan.

Ikkilamchi manba Homidjon Homidiyning «Tasavvuf allomalari» kitobida ham shu haqda fikr yuritiladi. Eshqobil Shukur dostonida ana shu ma'lumotni badiiy qayta ishlagan.

Boboyi Samosiy otdan tushdilar.  
Bir chayqalib ketdi Qasri Hinduvon,  
Bir buloq ko'z ochdi bosgan izidan,  
Xizr hassasidan yoqqanday imon.

Ma'lumki, Boboyi Samosiy tarixiy shaxs bo'lib, o'zining yuksak diniy e'tiqodi, ilmi, bashoratlari bilan tasavvuf olamida shuhrat qozongan. Asarda uning mana shu jihatlariga alohida urg'u berilgan. Shoir Boboyi Samosiy otdan tushgan paytlarida Qasri Hinduvonning «bir chayqalib ketishi», uning izidan «bir buloqning ko'z ochishi» kabilar avliyoning g'ayrioddiy xislatlariga, karomatlariga ishoradir. Ayni paytda Bahovaddinning tug'ilishi bashorat qilinadi. Eshqobil Shukur Boboyi Samosiyning Qasri Hinduvonda to'xtashining sababini ham ochishga intiladi.

Turkumdan o'rin olgan «Ko'zgodagi qiz» dostonida bugunning turfa qiyofa va xarakterdagi insonlari: Dalli kampir, Qodir mo'ylov, yosh juvon, o'rta yosh ayol kabilar alvasti, jin, pari, shayton singari mifologik timsollarda bo'y ko'rsatadi. Shoir bunday tasvir usuli orqali o'zi yashab turgan muhitdagi axloqiy tanazzul ildizlarini, turli ma'naviy buzilishlarni, kishilar orasidagi munosabatlarni ochib berishga intilgan. Bunda shoirga ramziy usul nihoyatda qo'l kelgan. Binobarin, Dalli kampir Rahmonning buvisi qiyofasida unga nopok yo'ldan yurishni, axloqsizlikni targ'ib etib, noto'g'ri «o'git» beradi:

Dalli kampir

Pokligingdan ammo kimga naf

Halol-harom qoldimi hozir

To'g'ri odam cho'ntagi to'mpayib turmas...

Mifologik personaj bilan inson obrazining birga keltirilishi juda ko'p afsonalarda kuzatiladi. Bunga «Cho'pon bilan pari» afsonasi syujeti yaqqol misol bo'la oladi.

**Pari** obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi. U obraz afsona, ertak hamda doston matnlarida ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biridir. O'zbek folklorida pari obrazi genezisi va poetikasi Olim Qayumov tomonidan alohida maxsus o'rganilgan.<sup>50</sup>

---

<sup>50</sup> Каюмов О. Ўзбек фольклорига пари образи: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т., 1999. – Б.25.

Afsonalarda ko'pincha pari yo go'zal qiz, yo go'zal yigit ko'rinishida namoyon bo'lib, inson personajga oshiq bo'lib qoladi. Agar inson u haqda boshqalarga gapirmoqchi bo'lsa, pari uni qattiq jazolaydi.

Odamlar o'rtasida pari inson farzandiga oshiq bo'lib, uni shomonlikka undashi, o'sha insonga homiylik ko'rsatishi haqida afsonaviy e'tiqodiy qarashlar bor. Agar o'sha inson parilar bilan bog'liq amal qiladigan taqiqlarni buzguday bo'lsa, parilar unga ziyon etkazishi aytiladi. Yuqoridagi afsonada xuddi shu kabi qarashlar o'ziga xos badiiy yo'sinda ochib berilmoqda. Unda cho'pon yigitga parining yo'liqishi va oshiq bo'lishi, so'ngra yigitga parining magik yordam berishi, pari ko'magida yigitning g'aroyib xislatga erishishi, ammo u pari shartini buzishi va buning oqibatida ayanchli halok bo'lishi ifoda etilgan.

Buxoroni kezib Oybekka eng ta'sir etgan kuch bu ko'hna Ark. U erda boshidan kechirganlari Oybek xayolini butunlay band etganligi va uni yangi-yangi asarlar yozishga undaganligi aniq. Oybek haqidagi dostonda shoirga ta'sir ko'rsatgan "ilhom parisi" – suv parisi xususida fikr boradi:

Yangi obraz-la uchrashtirdimi,  
Yo **suv parisiga** qildi ro'baro'?'  
Yo quyosh bilan qo'l ushlashtirdimi,  
Yo tog'lardan tushdi oldiga ohu?

Shu bois lirik obraz shoir holatida katta o'zgarish sezadi:

Keng yag`rin, mosh-gurunch qo'ng`iroq sochda  
Sezdim yoyilganin yangi hayajon.

Dastlabki satrda shoirning ruhiyati uning suvrati – portretiga xos chizgilar bilan uyg'unlikda ochib berilgan.

O'zbek zamonaviy she'riyatida suv bilan bog'liq afsonaviy obraz – **suv parisi** timsolining obrazlantirilgani ko'p kuzatiladi. Zero, qadimgi insonlar suv mamlakatiga, suv devlari va suv parilariga ishonch bilan qarashgan. Ular haqida turli afsonalar, ertaklar yaratilgan.

Yangi qahramon-la uchrashtirdimi,

## Yo suv parisiga qildi ro'baru?<sup>51</sup>

Xalq orasida suv parisi haqidagi afsonalar juda keng tarqalgan. Shular asosida Muhammad Yusuf "Suvpari" she'rini yaratar ekan, uni faqat suv bilan emas, osmon (ko'k) bilan ham bog'lab, o'ziga xos originallik yaratadi. Qolaversa, shoir suv parisini "hur" deyish orqali suvning osmon va erni tutashtiruvchi poklik vositasi ekanligiga ishora qiladi. Negaki, hur – jannatga bokira ketgan qiz timsolini anglatadi, ko'kdagi pari uning ilohiyligini, ko'k ko'ldaligi esa uning yanada sirliligini anglatishga xizmat qilmoqda. Shoir "k" harfini alliterastiya sifatida qo'llash vositasida "ko'l" so'zining ma'nosini yanada kuchaytirishga erishmoqda. Chunki xalq ko'l suvi oqmasligi bois, uni nopok deb qaragan. Shuning uchun unga tushgan hur-pari "tinib, jimib" qolgani, ya'ni halok bo'lgani ta'kidlanmoqda:

Sen ko'kdagi harir ko'ylak hur-pari,  
Ko'k ko'ldagi tinib qolgan **suvpari**.<sup>52</sup>

Xullas, suv bilan bog'liq mifologik tasavvur-tushunchalar asosida suvning turli ma'nolarda, turli ko'rinishlarda obrazlantirilgani kuzatiladi. Dastlab xalq she'riyatida boshlangan bu badiiy an'analar keyinchalik yozma she'riyatda, hatto hozirgi she'riyatda ham davom ettirilayotgani diqqatga sazovordir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, **hur** – jannatga bokira ketgan qiz timsolini anglatadi. Shuning uchun marsiya ko'rinishida yaratilgan zamonaviy qo'shiqlarda ham hur obrazi tilga olingani kuzatiladi. bunga Muhammad Yusufning Nurxon xotirasiga bag'ishlangan "Uyqudagi qiz" she'ridan misol keltirish mumkin:

Qora erga qo'yib bosh,  
Bir qizgina uxlaydi.  
Ko'zlariga to'lib yosh,  
Hur qizgina uxlaydi.<sup>53</sup>

Hurlar, albatta, jannatdan makon tutishi haqidagi mifologik tushunchalar Muhammad Yusuf qalamiga mansub quyidagi misralarda ham o'z aksini topgan:

Javob aylab so'rog'iga,

<sup>51</sup> Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.190.

<sup>52</sup> Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз, 121-бет.

<sup>53</sup> Муҳаммад Юсуф. Уйқудаги қиз / Сайланма: шеърлар, достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.47.

Kirsam men jannat bog`iga,  
Hurlar yur deb yotog`iga,  
Qo`ldan tortib qolar bir kun...

Parilardan o`zing ko`rkam,  
Ko`nglim-ku sen bilan, erkam,  
Ammo ortga qaray desam,  
Bo`ynim qotib qolar bir kun!<sup>54</sup>

Shohi Zinda nomi zamonaviy she`rlarda ham uchraydi. Bunga Ahad Qayumdan quyidagi misralarni misol keltirish mumkin:

Shomu sahar ko`z yosh to`kar Shohi Zinda,  
Bibixonim dardlarini aytsin kimga.<sup>55</sup>

Ma`lumki, **jin** o`zbek folklorining mifologik personajlaridan biri bo`lib, bu xayoliy mavjudot bilan aloqador demonologik hikoyalar xalqimiz orasida keng tarqalgan. Bu obrazning genetik ildizlari aslida arab mifologiyasiga borib taqaladi.

Umuman aytganda, mifologik obraz va timsollar vositasida shoirlar ko`pincha qalb kechinmalarini va hislarini, oilaviy turmush farovonligini, unda farzand kamolini, hayot yo`lidagi intilishlarini, Vatanga muhabbat tuyg`usini ifoda etgani kuzatiladi.

Xullas, zamonaviy shoirlarning ijodiy izlanishlari natijasida davr lirikasida yaratilgan mifologik mazmundagi ramziy obrazlarning o`ziga xos tizimi vujudga keldi. Ular mazkur obrazlar vositasida ma`naviy-ruhiy hayot manzaralarini: turli fojeiy holatlarni, axloqiy o`pirilishlarni jonli ifodalashga erishdilar.

---

<sup>54</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.320-321.

<sup>55</sup> Қаюм Аҳад. Синишимни соғинди кимлар. – Бухоро, 2011. – Б.79.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Mifonimlar o'ziga xos ma'no, qirra, ramz, falsafa aks ettiradigan an'anaviy ma'naviy hodisalardan biridir. Xalqimiz orasida mifga aloqador qarashlar tizimi shakllangan bo'lib, ularning kelib chiqishi ibtidoiy insonlarning eng qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi. O'zbek xalq she'riyati bilan birga o'zbek zamonaviy she'riyatida ham kult va totemlarning poetik ifodalari saqlanib qolgan.

2. Mifologik tushunchalarning obrazlantirilishi nafaqat o'tmishda yaratilgan folklor asarlarida, balki zamonaviy shoirlar she'riyatida ham kuzatiladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifologik obrazlarning juda ko'p turlari rang-barang timsoliy ma'nolarda, ramziy mazmunlarda qo'llangani kuzatiladi.

3. Mifologik obrazlarni har bir shoir o'z she'rida turli-turli yangi ma'noda, yangi bir fikr yoki g'oyani ifodalashda qo'llashga harakat qilgan. Aslida she'rlarda mifologik timsollarining badiiy-estetik vazifalari, anglatgan ma'nolari g'oyat ko'p.

4. Mifologik tasavvur-tushunchalar asosida xalq asarlarida paydo bo'lgan mifonimlar zamonaviy she'riyatda ham turli ma'nolarda obrazlantirilgani kuzatiladi. Xalq she'riyatiga xos ana shu badiiy an'analar keyinchalik yozma she'riyatda, hatto hozirgi she'riyatda ham davom ettirilayotgani diqqatga sazovordir.

5. Mifologik obrazlar ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llanilishi kuzatiladi. Yozma adabiyotda ijobiy mifologik obrazlar sifatida Xizr, pari, farishta; salbiy mifologik obrazlar sifatida iblis, shayton, jin, ajina, alvasti, jodugar, Yalmog'iz, dev kabilar qo'llanib, ijodkorlarning g'oyasi va maqsadi yo'lida ishga solingan.

6. Zamonaviy she'riyatda real tarixiy asoslarga ega bo'lgan obrazlar bilan bir qatorda mifologik personajlar ham ko'p uchraydi. Bunday mifologik personajlarni bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagi ikki tipga bo'lib o'rganish mumkin: 1) homiylik qiluvchi, ya'ni yordam beruvchi mifologik personajlar. Bunga Xizr, chilton, Jabroil, Humo, pari singari mifologik obrazlar misol bo'la

oladi. Ular homiylik qiluvchi, yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, sehrli narsalarni hadya etuvchi, og'ir ahvolda qolganlarni qutqaruvchi, buloqlarning suvini ravon qiluvchi g'aroyib personajlar sifatida gavdalaniriladi. 2) Raqib sifatida harakat qiluvchi mifologik personajlar. Bunga dev, ajdaho, jin, ajina, alvasti, ya'juj-ma'juj kabi bir qator mifologik obrazlar misol bo'la oladi. Ular ko'pincha asosiy qahramonga dushmanlik qilib, uning o'z maqsadiga erishishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ladi. Kerakli narsani o'g'irlab, qahramonni bezovta qilish yoki unga kasallik, o'lim, yomonlik keltirishga intilish, suv yo'llarini berkitib, qurg'oqchilik yuz berishiga sababchi bo'lish va hokazo kabilar bu kabi mifologik obrazlarning xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

7. Folklor obrazlarining yozma adabiyot tomonidan o'zlashtirilishi ijodkor fikrining chuqurroq anglashilishi, asarning jozibali bo'lishi uchun xizmat qilgan. Ular, odatda, motiv va janr stilizastiyasi, ba'zan sintezlashgan folklorizm bilan birga ko'chgan. Yozma she'riyatga xos obrazlar safini kengaytirgan.

8. Mifologik obrazlarning zamonaviy she'riyatda qo'llanishi nafaqat uning obrazlar olamini kengaytirgan, balki g'oyaviy mazmunini yanada kuchaytirishga, badiiy qiimmatini oshirishga, an'analarni mustahkamlashga turtki bo'lgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 174 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. / Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль. – № 28.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – 56 б.

### II. Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiya va risolalar:

4. Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 316 б.
5. Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
6. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
7. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – 340 с.
8. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.
9. Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.
10. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008. – 290 б.
11. Жўраев М., Худойкулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б.

- 12.Жўраев М. Фольклоршунослик асослари.: Ўқув кўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
- 13.Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
- 14.Ипак йўли афсоналари. (Жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тузувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Жўраев. – Т.: Фан, 1993. – 102 б.
- 15.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т., Фан, 2010. – 308 б.
- 16.Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 2007. – 23 б.
- 17.Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. – 260 б.
- 18.Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 128 б.
- 19.Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.
- 20.Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004. – 128 б.
- 21.Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – 222 б.
- 22.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Т.: “Musiqachi”, 2010. – 368 б.
- 23.Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 132 с.
- 24.Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.: Насаф, 1999. –172 б.
- 25.Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011. – 304 б
- 26.Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
- 27.Ўзбек халқ мақоллари. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 512 б.

28. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б
29. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмачилигида жанр ва услуб ранг-баранглиги. – Т.: Фан, 2010. – 144 б.
30. Фафуров Ғ. Удумларда халқ қалби. – Т.: “Ёш гвардия”, 1986. – 192 б.

### **III. Ilmiy jurnaldagi maqolalar**

31. Имомов К. Миф ва ялмоғиз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2005. – №5-6. – Б.34-38.
32. Турдимов Ш. Лирик кўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1982. – №3. – Б.16-19.

### **Y. Badiiy adabiyotlar**

33. Асотирлар ва ривоятлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 128 б.
34. Бўзлардан учган ғазал-ай. – Бухоро, 2004. – Б.100.
35. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2000. – 414 б.
36. Воҳидов Э. Орзули дунё: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2010. – 208 б.
37. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 248 б.
38. Икром Отамурод. Тағаззул. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2008. –
39. Муҳаммад Али. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 448 б.
40. Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз: (Шеърлар тўплами). – Тошкент: Нихол, 2014. – 192 б.
41. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – 384 б.
42. Орипов А. Мен нечун севаман Ўзбекистонни. Шеърлар ва драматик дoston. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б.97-98.
43. Орипов А. Эверест ва уммон. Шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 336 б.

- 44.Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1972. – 232 б.
- 45.Рауф Парфи. Сўнги видо. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 136 б.
- 46.Раҳимбоева Қ. Уйғониш фасли. – Т.: Ёш гвардия, 1989. – 72 б.
- 47.Раҳмон Ш. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1997. – 370 б.
- 48.Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг ёши / Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. –
- 49.Сирожддин Саййид. Ватан абадий. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001. – 256 б.
- 50.Сотим Аваз. Ҳуқуқ. Шеърлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 48 б.
- 51.Усмон Азим. Фонус. Шеърлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010. – 160 б.
- 52.Шода-шода марварид. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э. Очилов. – Т.: Шарқ, 2006. – 416 б.
- 53.Қаюм Аҳад. Синишимни соғинди кимлар. .. – Бухоро, 2011. – 160 б.

#### **ҲI. Internet saytlari**

- 54.[www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com).
- 55.[www.ziyouz.uz/index.php](http://www.ziyouz.uz/index.php).

## MUNDARIJA

KIRISH.

I BOB. MIFONIMLAR MOHIYATI VA GENEZISI.....	3
I.1. Mifonimlarning hayotiy va folkloriy asoslari.....	8
I.2. Mifologik obrazlarni atovchi mifonimlarning badiiy vazifalari.....	12
II BOB. ZAMONAVIY SHE'RIYATDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING TURLARI.....	22
II.1. Kampir qiyofasidagi mifologik obrazlar (Yalmog`iz, Jodugar, Alvasti, Ajina) talqini.....	22
II.2. Maxluq qiyofasidagi mifologik obrazlar (Dev, shayton, ajdaho) talqini.....	28
II.3. Inson qiyofasidagi mifologik obrazlar (Xizr, pari, jin) talqini.....	34
XULOSA.....	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI. ....	46